

# UNIVERSAL

XALQARO ILMIY JURNAL

Volume 1, Issue 4, 2024



Google Scholar



ISSN: 3060-4540

[www.universaljurnal.uz](http://www.universaljurnal.uz)

# TAHRIRIYAT KENGASHI

## Bosh muharrir

Abdutilibov Muhridin Zuhridin o'g'li

## Bosh muharrir o'rinbosari, texnik muharrir

Xusanov Saydulloxon

## TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

01.00.00 – Fizika-matematika fanlari	PhD. J. Ziyoviddinov PhD. X.Qo'shaqov
02.00.00 – Kimyo fanlari	k.f.d., dots. N.X.To'xtaboyev
03.00.00 – Biologiya fanlari	b.f.d., prof. N.A.Xo'jamshukurov b.f.d., prof. A.K.Xusanov b.f.n., dots. F.M.To'xtaboyeva b.f.n., dots. A.A.Imirsinova PhD. Sh.A.Tashbayev PhD. M.Sh.Jaynaqov PhD. G'.G'ulomov PhD. G.O.Akbarova PhD. D.B.Turabekova PhD. B.Azimov PhD. F.S.Xudoynazarov PhD. M.B.Mavlyanov
05.00.00 – Texnika fanlari	PhD. F.Yuldashev
06.00.00 – Qishloq xo'jaligi fanlari	t.f.d., prof. B.M.Rasulov
07.00.00 – Tarix fanlari	t.f.d., dots. S.Hoshimov
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlari	i.f.n., dots. D.Nurmatov
09.00.00 – Falsafa fanlari	PhD. X.Xolmirzayev
10.00.00 – Filologiya fanlari	f.f.d., prof. B.Raxmonov PhD. U.B.Raxmonov
11.00.00 – Geografiya fanlari	g.f.d., dots. A.Isayev PhD. Z.Temirov
13.00.00 – Pedagogika fanlari	PhD. U.T.Shoabduraximova PhD. A.Abdullayeva
19.00.00 – Psixologiya fanlari	p.f.d. prof. M.Xalimova



Rasmiy sayt: [www.universaljurnal.uz](http://www.universaljurnal.uz)



Telegram manzil: [https://t.me/universal\\_jurnal](https://t.me/universal_jurnal)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami: № 245196

GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari asosida bo'lishini to'liq ta'minlash maqsadida, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi o'rnatilgan tartibda raqam taqdim etildi asosan davriy nashrlarini ISSN tartib raqami bilan belgilash uchun qo'yidagi raqam taqdim etildi: **ISSN - 3060-4540**

© Jurnalda berilgan materiallarning mazmuni va haqqoniyligiga mualliflarning o'zlari javobgardirlar.



### “FERRAKON” BFQ TARKIBIDAGI GLISIRRIZIN KISLOTASI VA FLAVONOIDLAR MIQDORINI SPEKTROFOTOMETRIK ANIQLASH

Asqarov Ibrohim Rahmonovich., Isaev Yusup Tojimatovich., Rustamov Sanjar Ashiraliyevich, Egamberdiyev Dostonbek Usmonjon o'g'li

Andijon davlat universitet

Maqola haqida ma'lumot  
Qabul qilingan: 01.07.2024  
Qayta qabul : 04.07.2024  
Saytda mavjud : 08.06.2024

Muallif (lar)  
I.A.Asqarov  
\*Yu.T.Isayev  
S.A.Rustamov  
D.U.Egamberdiyev



Muallif bilan aloqa



[yusufjon\\_67@inbox.ru](mailto:yusufjon_67@inbox.ru)

<https://orcid.org/0000-0002-9904-6791>

© I.A.Asqarov va boshqalar

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

**Anotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishida mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqilgan tarkibida shirinmiy ildiz ekstrakti saqlovchi “FERRAKON” biologic faol qo'simcha (BFQ) tarkibidagi asosiy ta'sir etuvchi modda – glitsirrizin kislotasi hamda flavonoidlar yig'indisi miqdorini spektrofotometrik usulda aniqlash bo'yicha olib borilgan tajribalar natijalari keltirilgan. BFQ tarkibida glitsirrizin kislotasining miqdori 3.78%, flavonoidlar yig'indisining miqdori 9,97% ga yetishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** Shirinmiya ildizi; biologic faol qo'shimmalar, flavonoidlar; pinosembrin; standartlashtirish; spektrofotometriya.

**Аннотация:** В данной исследовательской работе спектрофотометрическим методом определено основное действующее вещество - глицирризиновая кислота и флавоноиды в биологически активной добавке (БФХ) «ФЕРРАКОН», содержащей экстракт корня солодки, разработанной отечественными производителями. Установлено, что количество глицирризиновой кислоты в БФХ составляет 3,78%, а количество флавоноидов – 9,97%.

**Ключевые слова:** корень солодки; биологически активные соединения, флавоноиды; пиноцембрин; стандартизация; спектрофотометрия.

**Annotation:** In this research work, the main active substance - glycyrrhizic acid and flavonoids in the "FERRAKON" biologically active supplement (BFQ) containing licorice root extract, developed by local manufacturers, was determined by spectrophotometric method. the results of the experiments are presented. It was found that the amount of glycyrrhizic acid in BFQ is 3.78%, and the amount of flavonoids is 9.97%.

**Keywords:** licorice root; biologically active compounds, flavonoids; pinocebrin; standardization; spectrophotometry.

**Kirish.** Ayrim biologik faol qo'shilmalar (BFQ), oziq-ovqat, ichimlik, yig'malar va dorivor preparatlarning tarkibiy qismi sifatida funksional o'simliklardan foydalanish ko'lamini kengaytib bormoqda. Ular orasida bugungi kunda silliq shirinmiya (*Glycyrrhiza*) yetakchi o'rinni egallaydi [1]. Shirinmiya (yoki qizilmiya) – eng qadimgi samarali dorivor o'simliklardan biri hisoblanadi. Shirinmiya ildizini Amerikaga kelgan yevropalik ko'chmanchi xalqlar qand o'rniga saqich qilib chaynashgan, bu ularni kasalliklardan saqlashga, yangi qit'aga, muxitga moslashishga yordam bergan. Xozirgi kunda, shirinmiya ildizidan oziq-ovqat qo'shilmasi va xushbo'y ta'm beruvchilar – glitsirizin (E958) ishlab chiqariladi, bir qator mahsulotlarga ushbu o'simlikning ekstrakti qo'shiladi [2].

Xozirgi vaqtda dorivor o'simlik xom ashyosi va fitopreparatlarni standartlashtirish usullarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar alohida dolzarblikka ega hisoblanmoqda [3]. Yuqori nafas yo'llari yallig'lanish kasalliklarida tarkibida shirinmiya ildiz ekstrakti saqlovchi BFQ lardan keng qo'llanilib kelinmoqda. Shirinmiya ildiz va ildiz ekstrakti asosida bir qator BFQ hamda preparatlar ishlab chiqarilmoqda (ildiz quruq ekstraktlar, qizilmiya siropi, elekasol, glitsiram, likvidit va boshqalar). Ushbu BFQ va preparatlar yallig'lanishga qarshi, antigistamin, immunomodulyator, ekspektoran, xoleretik, yaraga qarshi dorilar sifatida amaliy tibbiyot va xalq tabobatida samarali qo'llanilib kelinmoqda [4]. Yuqorida keltirilgan dori vositalarining keng qo'llanilishi fonida ularni standartlashtirish muammolari hanuzgacha to'liq hal qilinmagan. Hozirgi vaqtda shirinmiya ildizi va ushbu xom ashyoga asoslangan preparatlarni standartlashtirish glitsirizin kislotasining miqdoriga qarab amalga oshiriladi. Farmatsevtika sanoatida yuqori qatlamli xromatografiya (YuQX), yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YuSSX), spektrofotometriya va boshqa usullarning joriy

etilishi BFQ, oziq-ovqat qo'shilmalar hamda dorivor preparatlarni standartlanishini takomillashtirish, mahsulotlarni sifat va miqdor ko'rsatkichlarini aniqlashda samarali usullari hisoblanib kelinmoqda [5]. Shu sababli silliq shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra L.*) va Ural qizilmiya (*Glycyrrhiza uralensis Fisch.*) ildiz ekstraktlari tarkibidagi asosiy ta'sir etuvchi triterpen saponin glisirizin kislotasini miqdorini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar ko'plab ilmiy markazlarda olib borilmoqda [6].

**Maqsad.** Ushbu ishning maqsadi kamqonlik xastaligini oldini olish va davolash uchun tavsiya etilgan "FERRAKON" BFQ si tarkibidagi glitsirizin kislotasi hamda umumiy flavonoidlar miqdorini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqot ob'ektlari.** "FERRAKON" BFQ si ("VitaBiotik" XK), shuningdek laboratoriya sharoitida shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra L.*) ildizidan olingan namunalari bo'lgan. Standart namunalarni sifatida glitsirizin kislotasi, glitsirizin kislotasini monoammoniyli tuzi ishlatilgan.

"FERRAKON" BFQsi tarkibidagi glisirizin kislotasi miqdorini aniqlash usuli. 2,00 ml BFQ namunasi 250 ml tubi yassi tubli shiriflangan konusimon kolbaga quyildi ustiga 20 ml 95% etil spirti spirt qo'shiladi va aralashtiriladi. Keyin trixlorosirka kislotaning 50 ml 3% asetondagi eritmasi qo'shildi va 10 daqiqa davomida qizdirildi. Sovutgandan so'ng, hosil bo'lgan eritma qog'oz filtri orqali filtrlanadi, kolba 3 ml trixlorosirka kislotaning 3% asetondagi eritmasi ikki maroraba yuvildi hamda yuqoridagi usul yordamida filtirlandi. Olingan filtratga cho'kma paydo bo'lguncha tomchilab konsentrlangan ammiak eritmasi (pH 8,3 dan 8,6 gacha) tomizildi. Hosil bo'lgan cho'kma bilan eritma Buxner voronkasi yordamida filtirlandi. Kolba va filtr uch

marotaba 50 ml aseton bilan yuviladi. Filtrli cho'kma dastlabki, ya'ni 250 ml ko'lbaga o'tkazilib 50 ml suvda eritiladi, so'ngra 250 ml belgigacha suv bilan etkaziladi (A eritma). 1 ml

$$x = \frac{D \cdot m_0 \cdot 250 \cdot 25 \cdot 5 \cdot 100}{V \cdot 1 \cdot D_0 50 \cdot 25} = \frac{D \cdot m_0 \cdot 2500}{V \cdot D_0}$$

Bu yerda:

D - tekshirilayotgan eritma (B eritma) ning 258 nm dagi optik zichligi;

D<sub>0</sub> - tekshirilayotgan eritma tarkibidagi GKMAT ni (B eritma) 258 nm optik zichligi;

V – eritma hajmi, ml;

m<sub>0</sub> – GK massasi g.

“FERRAKON” BFQsi tarkibidagi umumiy flavonoidlarni miqdorini aniqlash. BFQ dan 1 ml olib 50 ml hajmli o'lchov kolbasiga solindi, unga 2 ml 3% li alyuminiy (III) xloridning spirtli eritmasi qo'shildi va eritmaning hajmi 96% etil spirti bilan belgiga keltirildi (A eritma), aralashtiriladi va alyuminiy bilan flavonoidlar kompleks hosil qilish uchun 40 daqiqaga qoldirildi (A eritma). Solishtirish uchun 1 ml BFQ (1:50) 50 ml hajmli o'lchov kolbasiga solingan va eritmaning hajmi 96% etil spirti bilan belgiga yetkazilgan (A eritmaga solishtirish uchun). Keyin tekshiriluvchi A eritmasining optik zichligi spektrofotometrda 310 nm to'lqin uzunligida A etalon eritma fonida o'lchandi.

$$x = \frac{D \cdot 50 \cdot 25 \cdot 100}{m \cdot 680 \cdot (100 - W)}$$

Bu yerda:

D – tekshirilayotgan eritmaning optik zichligi; m-namuna massasi; 680 – pinotsembrin standart namunasining 310 nm dagi solishtirma yutilish ko'rsatkichi ( $E_{1\text{cm}}^{1\%}$ ); W - quritishdan keyingi massa kamayishi

### **Olingan natijalar muhokamasi:**

“FERRAKON” BFQsi tarkibidagi glitsirizin kislotasi 258 nm to'lqin uzunligida spektrofotometriya yo'li bilan aniqlanganda

A eritmadan 25 ml hajmli o'lchov kolbasiga solinadi va eritma hajmi suv bilan belgiga keltiriladi (B eritma).

o'rtacha miqdori 3,78 % ni tashkil qildi. Ma'lumki glitserrizin kislotasi immunitet tizimini faollashtiradi, vitamin va minerallarni organizmga so'rilishini yaxshilaydi. Bu esa BFQ tarkibidagi asosiy biofaol birikmalar, vitaminlar, minerallar va biogen elementlarni organizm tomonidan yuqori darajada o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, ushbu modda genetik va orttirilgan aplastik anemiyaning kuchli bo'lmagan turini davolashda yordamchi vosita sifatida samarali hisoblanadi [7]. Ushbu kasallikni oldini olish va davolashda ko'plab sintetik preparatlardan foydalaniladi, bunday preparatlardan foydalanish jigar yetishmovchiligi bor kasallarda muammo tug'diradi. Bu muammoni hal etish maqsadida yondosh davolovchi vosita sifatida tarkibida glitsirizin kislotasi saqlagan tabiiy BFQlar tavsiya etiladi.

Shuningdek umumiy flavonoidlar miqdori 310 nm to'lqin uzunligida spektrofotometriya yo'li bilan mahsulot tarkibida 9.97 % flavonoidlar borligi aniqlandi. Flavonoidlar o'simliklar uchun zaruriy moddalardan bo'libgina qolmay, inson salomatligi uchun ham foydalidir. Ya'ni, flavonoidlar qadim zamonlarda an'anaviy tibbiy muolajalarda asosiy rol o'ynagan va ulardan foydalanish hozirgi kungacha davom etgamoqda. Tibbiyot uchun flavonoidlarning eng qimmatli xususiyati ularning yuqori toksik erkin radikallarni samarali tozalash va oksidlovchi stressni kamaytirish qobiliyatidir. Bundan tashqari,

flavonoidlar temir kabi metall ionlari bilan barqaror komplekslar hosil qiladi va bu ularning antidote xususiyatlarini ifodalaydi[8]. Flavonoidlar bilan temir komplekslari temir ionining ichakda so'rilishini inhibirlashi va ferroportin jarayonini kamaytirishi ma'lum, ammo ba'zi zamonaviy tadqiqotlar aksincha ekanini ko'rsatmoqda. So'nggi paytlarda quercetin temirni hujayra ichida va tashqarisida tashish uchun vosita sifatida harakat qilishi aniqlandi. Temirni flavonoidlar bilan kompleks hosil qilishi, Fenton reaksiyasi, ichaklar shilliq qavat bloklari va oshqozon-ichak muammolari kabi temir yetishmasligidan kelib chiqadigan

nojo'ya xolatlarining oldini olishda foydali hisoblanadi.

## Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqotlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan kamqonlikni oldini olish va davolashda qo'llash uchun tavsiya etilayotgan "FERRAKON" BFQ si tarkibidagi glitsirizin kislotasi va flavonoidlar yig'ndisining miqdori spektrofotometrik usulda aniqlandi. Olingan natijalar mazkur BFQ ni davolaovchi samaradorligini baholashda ma'lum ahamiyat kasb etishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Куркин В.А., Егоров М.В. Стандартизация корней солодки голой и лекарственного препарата «солодки экстракт жидкий» // Фундаментальные исследования. – 2014. – №6-6. – С. 1232-1236; URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=34320> (дата обращения: 05.07.2024).
2. Askarov, I.R., Rustamov, S.A., Egamberdiev, D.U., Isaev, Yu.T. & Kushiev, Kh.Kh. (2021). Molecular complexes of monoammonium salt of glycyrrhizic acid with some urea and their antibiotic activity. *Chemical Problems*, (3), 160-167.
3. Исаев Ю.Т., Рустамов С.А., Эгамбердиев Д.У., Абдуллаев М.Н., Аскарлов И.Р., "Фотометрическое определение глицирризиновой кислоты в сухих корнях солодки". Вестник Пермской государственной фармацевтической академии. Сборник материалов (22 апреля 2021 года). 149-151 с.
4. М.В.Егоров, В.А.Куркин, Г.Г.Запесочная, В.А.Быков. Качественный и количественный анализ сырья и препаратов солодки. Вестник ВГУ. Серия: Химия, Биология. Фармация. 2005. №1. С.175-180.
5. ФС 2.5.0040.15 «Солодки корни». ГФ РФ XIV, т.IV, М., 2018 – с.6429.
6. Askarov, I., Isaev, Y., Tashtemirova, G., Rustamov, S., Kadirov, M., & Shadmanov, K. (2023). Synthesis of complex compounds of the monoammonium salt of glycyrrhizic acid and thiourea. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 383, p. 04023). EDP Sciences.
7. Ren CA, Li YX, Cui JY, Sheng ZX, Ran XH, Wang BH, Zhang MH. Efficacy of glycyrrhizin combined with cyclosporine in the treatment of non-severe aplastic anemia. *Chin Med J (Engl)*. 2013;126(11):2083-6. PMID: 23769562.
8. Lesjak M, K S Srail S. Role of Dietary Flavonoids in Iron Homeostasis. *Pharmaceuticals* (Basel). 2019 Aug 8;12(3):119. doi: 10.3390/ph12030119. PMID: 31398897; PMCID: PMC6789581.
9. Maryam Mazhara, Shaheen Faizib, Anum Gula, Nurul Kabira and Shabana U. Simjee., «Effects of naturally occurring flavonoids on ferroportin expression in the spleen in iron deficiency anemia in vivo», *RSC Advances*., Issue 38, 2017, RSC Adv., 2017,7, 23238-23245 <https://doi.org/10.1039/C7RA02138K>



### MATN TAHLILIDA GERMENEVTIKA

**Tursunova Odina Azimjonovna**

*University of economics and pedagogy Filologiya kafedrasida dotsenti*

**Maqola haqida ma'lumot**  
**Qabul qilingan: 02.07.2024**  
**Qayta qabul: 05.07.2024**  
**Saytda mavjud: 08.06.2024**

**Muallif (lar)**  
**O.A.Tursunova**

#### Muallif bilan aloqa



[odinaxontursunova82@gmail.com](mailto:odinaxontursunova82@gmail.com)



<https://orcid.org/0000-0002-9904-6721>

© O.A.Tursunova

**UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal**

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

#### Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

**Anotatsiya:** Ushbu maqola fonopoetikaning ayrim masalalarini yoritishga bag'ishlanadi.

Matnning turiga va uslubiga qarab, funksiyalari belgilanadi. Va mana shu funksiyalari ma'lum intonasiya (xayajon, hayrat, muhabbat, nafrat, savol, faxr va boshqa tuyg'ular, munosabatlar ifodasi) orqali namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** fonopoetika, ton, intonasiya, to'xtam, poetik matn.

**Аннотация:** Данная статья посвящена освещению некоторых вопросов фонопоэтики.

Функции определяются в зависимости от типа и стиля текста. И эти функции проявляются через определенную интонацию (выражение волнения, удивления, любви, ненависти, вопроса, гордости и других эмоций, отношений).

**Ключевые слова:** фонопоэтика, тон, интонация, стоп, стихотворный текст.

**Annotation:** This article is devoted to elucidating some issues of phonopoetics.

Functions are determined depending on the type and style of the text. And these functions are manifested through certain intonation (expression of excitement, surprise, love, hatred, question, pride and other emotions, relationships).

**Keywords:** phonetic units, stress, tone, stop, differential signs, poetic text.

Til hodisalarini tavsiflashga antroponimik yondashuv rivojlanishi munosabati bilan tilning fonetik qurilishini tadqiq etish faollashdi. Shu bois ham matnning tovush qurilishi til uslubi bilan bog'liq holda turli uslublardagi matnlar tarkibida tovush miqdori va sifati tavsifi, tovushlarning tasviriy-ifodaviy roli, poetik nutq evfoniyasi, tovushning poetik matn emosiyasiga ta'siri kabilar lingvopoetikaning bugungi kundagi dolzarb muammolaridan hisoblanadi. So'zning atash, emosional-ekspressiv, aksiologik, kogofenik singari funksiyalari nutqda voqelanadi. So'zning ana shunday funksiyalari voqelangan matn badiiy matn sanaladi. Matnning turiga va uslubiga qarab, funksiyalari belgilanadi. Va mana shu funksiyalari ma'lum intonasiya (xayajon, hayrat, muhabbat, nafrat, savol, faxr va boshqa tuyg'ular, munosabatlar ifodasi) orqali namoyon bo'ladi.

Poeziya qadimda dastlab eshitishga asoslanib yaratilgan, shuning uchun badiiy asar tilining qabul qilinishi vizual emas, jonli intonasion jarangi bilan eshivilishi kerak. Bu esa axborotning estetik jihatini kuchaytiradi, xabar beruvchining hissiy munosabatini aks ettiradi, tinglovchiga shu hissiy ta'sir etkaziladi.

Munosabat bildiruvchi barcha ifoda vositalari matn bilan bog'liq ekan, matnning poetik vositalar bilan boyitilishi va talqini masalasini germenevtikaga bog'lab e'tirof etish mumkin. Umuman olganda, har qanday yozma manba (matn) ikkiyoqlama tabiatga ega: bir tomondan, u til tizimiga nisbatan qism, ikkinchi tomondan, muayyan bir individning ijod mahsulidir. Shuning uchun germenevtika oldida bir-biriga bog'liq ikkita vazifa turadi: birinchisi-matndagi lisoniy ifodani muayyan til tizimining uzvi sifatida o'rganish ("grammatik" talqin), ikkinchisi-uning ortida turgan betakror ma'noni anglash ("psixologik" talqin)1.

Germenevtika falsafasi matni o'rganishning ahamiyatini inson va jamiyat hayotini tadqiq etishda muhimligiga urg'u beradi. Ijtimoiy tadqiqot sohasida matn bilan

ishlash asosiy o'rin tutadi. Zero, matn turli fan sohalarining ifoda qurolidir.

Filologik fan tizimida esa matnning emisionalligini ta'minlovchi vositalar va ular ifodalayotgan semantik, pragmatik ma'nolar, intonasion o'ttenkalar germenevtik metod asosida lingvopoetik tahlilni talab qiladi.

Matn muallifning ijodiga nisbatan qism hisoblanadi. Unda butunga xos bo'lgan barcha xususiyatlar u yoki bu ma'noda aks etadi. Demak, sub'ekt (tadqiqotchi) matni sharhlashdan avval, matnning mazmuni to'g'risida qandaydir ma'lumotga ega bo'ladi. Bunday ma'lumot turlicha – optimistik (ko'tarinkilik), ba'zan esa pessimistik (tushkunlik) ruhda bo'lishi mumkin. Shu sababli ham sub'ekt matnning mazmuni va mohiyatidan ko'proq o'zining tasavvuriga mos keluvchi narsani kutadi. Masalan, diniy muqaddas kitoblarning matnini o'rganishda sub'ekt uni tushunishga kirishishdan avval ushbu kitoblarda yozilgan ma'lumotlarning muqaddas va haqiqat ekanligiga ishongan holda yondashadi. Hozirgi zamon germenevtikasi nuqtai nazaridan matnning mazmunini tushunishdan avval sub'ektning ongida doim «tushunishdan avvalgi tasavvur» mavjud.

Buni matni sharhlash, talqin etish jarayonidagi tahlilni birlamchi tushunish, deb aytish mumkin. Ushbu birlamchi tahlil matni o'rganish va uni talqin etishda alohida ahamiyatga ega. Bunday talqin sub'ektning yondashuvi, matnning tahlili va u haqidagi fikriga, albatta, ta'sir ko'rsatadi. Tahlil natijalarining qanday bo'lishi ba'zan ana shu birlamchi tushunishga bog'liq bo'ladi. Uning ta'siri shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, u ba'zan fikrni butunlay qarama-qarshi tomoniga olib ketishi va unga, umuman, boshqacha mohiyat bergan tarzda yo'naltirishi mumkin.

Hali yorilmagan

Yangi peshonam,  
Jim turgin  
Devorlar uraversin do‘q.  
Qancha peshonamni, axir, yorganman,  
Ammo  
Biror devor qulagani yo‘q.

(Usmon

Azim. Qismat.)

Mazkur misoldan so‘zlovchining psixologik holatini anglash mumkin, lekin matnning talqini tinglovchi psixologiyasiga qarab turlicha ifodalanadi. So‘zlovchining sharoiti va muhiti bilan bog‘liq bu misolda davr koloriti ko‘rsatilganligini kuzatish mumkin, biroq tinglovchi ham o‘z vaziyatidan kelib chiqib talqin qiladi.

Xullas, har qanday poetik nutq so‘zlovchi va tinglovchini munosabatga kiritadi, so‘zlovchi maqsadining tahlili esa tinglovchi tomonidan amalga oshirilgan sharhga, tahlil ob'ekti bo‘lgan matnning tushunilishi hamda talqiniga borib taqaladi. Umuman olganda, falsafiy tushuncha

hisoblangan germenevtika tilshunoslik, lingvopoetika, semantika va badiiy sharh masalalarida muhim o‘rin tutadi. Poetik nutqdagi tovushlar bilan bog‘liq o‘zgarishlar, urg‘u, to‘xtam, bo‘g‘in va turoq kabi fonopoetik vositalarning tadqiqida poetik nutq sharhi va tahlili muhim amaliy bosqich vazifasini o‘taydi. Germenevtik ta‘limot lingvopoetik, xususan, fonopoetik birliklar sharhida alohida e‘tiborga molik. Chunki bu ishning metodologik asosini belgilashda etakchi omil vazifasini o‘taydi. Germenevtikaning poetik matnni tushunishdagi roli katta, chunki biror muallif asarini qay tarzda talqin etishi xususiylik kasb etadi, negaki bir kishi tomonidan ifodalanadi, lekin biror asar bir necha sharhlovchi tomonidan turli xil talqin qilinishi mumkin. So‘zlovchi (yozuvchi) nazarda tutgan mohiyatning ochilishi har qaysi talqinda ham, ma‘lum ma‘noda, yuzaga kelishi mumkin, faqat turli tahlil tamoyillari asosida boriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaev A. O‘zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. – Toshkent: Fan, 1987.
2. Tursunova O The importance of interactive games in increasing student speech competence. International bulletin of applied science and technology international bulletin of applied science and technology UIF = 8.2 | SJIF = 5.955 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10199685>
3. Zadornova V.Ya. Slovo v xudojestvennom tekste. Yazik, soznanie, kommunikasiya: Sb.statey / Otv.red. V.V.Krasnix, A.I.Izotov. – Moskva, MAKS Press, 2005. – Vip. 29.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
5. Lipgart A.A. Osnovi lingvopoetiki. – Moskva: Knijniy dom «LIBROKOM», 2010.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati.– Toshkent: Akademnashr, 2010.



### BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISIGA XOS METODIK KOMPETENSIYALAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Sobirova Oygul Alimovna

*Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

Maqola haqida ma'lumot  
Qabul qilingan: 04.07.2024  
Qayta qabul: 08.07.2024  
Saytda mavjud: 10.06.2024

Muallif (lar)  
O.A.Sobirova



[10.69891/3060-4540.2024.4.1.001](https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.4.1.001)



Muallif bilan aloqa

[ikromjon2705@gmail.com](mailto:ikromjon2705@gmail.com)



<https://orcid.org/0009-0002-9654-8531>

© O.A.Sobirova

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchisiga xos metodik

kompetensiyalar va ularni rivojlantirish bosqichlari hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada kompetensiya va kasbiy kompetensiya hususida ham fikrlar bayon etilgan. O'qituvchi tomonidan tashkil qilinayotgan har bir amaliy harakat pedagogik faoliyatning samarali yoki samarasiz, muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishiga olib kelishi hususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Kompetensiya, metodik kompetensiya, rivojlantirish, muvaffaqiyat, musiqa o'qituvchisi, mutahassislik fanlari, o'quv mashg'ulotlari.

**Аннотация:** В данной статье представлена методика, специфичная для будущего учителя музыки. Представлены некоторые комментарии по компетенциям и этапам их развития. Также в статье содержатся мнения о компетентности и профессиональной компетентности. Каждое практическое действие, организованное учителем, считается эффективным или неэффективным, успешным или неуспешным.

**Ключевые слова.** Компетентность, методическая компетентность, развитие, успех, учитель музыки, профильные предметы, обучение.

**Ключевые слова:** фонопоэтика, тон, интонация, стоп, стихотворный текст.

**Annotation:** In this article, there is a methodology specific to the future music teacher some comments on competencies and stages of their development are presented. Also, the article contains opinions on competence and professional competence. Each practical action organized by the teacher is considered to be effective or ineffective, successful or unsuccessful.

**Keywords.** Competence, methodical competence, development, success, music teacher, specialist subjects, training.

**Kirish.** Jahon oliy ta'lim tizimida o'zining munosib o'rniga ega akademik musiqani o'qitish ko'p asrlik tajribaga ega. Shunga qaramay, global axborotlashuv fokusida musiqa ta'limini o'qitishning yangi strategiyalarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirishning puxta asoslangan, takomillashgan mexanizmini yaratish bilan birga, sohaning evolyutsion hamda transformatsion rivojlanishi uchun zarur bo'lgan didaktik sharoitni shakllantirish talab qilinmoqda.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida musiqa ta'limi maxsus kengashlarning rahbariy ko'rsatmalari asosida faoliyat olib boradi. Germaniyada Musiqa kengashi, Angliyada ushbu kengashning muqobili bo'lgan – San'at Kengashi uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan musiqa ta'limi uchun dasturlar, metodik loyihalarni tayyorlash, tegishli yo'nalish bo'yicha o'quvchi va talabalar o'rtasida kontsert, festival, "Mahorat darslari"ni uyushtirish, musiqa va san'at tadbirlarini moliyalashtirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash masalalarining hal qilinishini ta'minlaydi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Dunyo miqyosida The Juilliard School (Julyard maktabi; Nyu-York, AQSh), Berklee College of Music (Berkli musiqa maktabi; Boston, AQSh), UCLA Herb Alpert School of Music (Kaliforniya universitetining Xerb Alper musiqa maktabi; Los-Andjeles, AQSh), Royal College of Music (Qirollik musiqa maktabi; London, Angliya), Guildhall School of Music and Drama (Gildxoll musiqa va drama maktabi; London, Angliya), Conservatoire de Paris (Parij konservatoriyasi; Parij, Frantsiya), Seoul Institute of the Arts (Seul san'at instituti; Seul, Janubiy Koreya), University of Music and Performing Arts Vienna (Vena musiqa ijro

san'ati universiteti; Vena, Avstriya), Curtis Institute of Music (Kartis musiqa instituti; Filadelfiya, AQSh), The Harris Institute (Xarris instituti; Toronto, Italiya), Hochschule für Musik Franz Liszt Weimar (Ferents List nomidagi Veymar musiqa universiteti; Veymar, Germaniya) kabi ta'lim mussasasalari musiqa sohasida yetakchi bo'lib, tegishli sohaning turli yo'nalishlarida kasbiy, xususan, metodik kompetentlikka ega malakali mutaxassislarni tayyorlashda boy tajriba to'plangan.

Akademik musiqa modifikatsiyasi O'zbekiston OTMda amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotda o'zining ijobiy yechimini topishi zarur bo'lgan muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Mavjud sharoitda mazkur vazifani hal qilish yo'lida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'rinda joriy yilda tashkil qilingan musiqashunos yosh tadqiqotchilarning I Xalqaro tanlovining o'tkazilgani, tanlov yakunida "Evropa-Osiyo mamlakatlarining musiqasi jahon kontekstidagi o'rni" (Toshkent; 2023-y.) mavzusida ilmiy anjumanning tashkil qilinganini e'tirof etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (8-oktyabr 2019-yil) va "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (2022-yil 28-yanvar) Farmonlari, "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasini

tasdiqlash to'g'risida"gi (8-oktyabr 2019-yil), "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi (2017-yil 20-aprel), "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2020-yil 27-fevral) Qarorlari mazkur muammoning ahamiyatini izohlashga asos bo'la oladi.

**Tahlil va natijalar.** Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlashda respublika uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning metodik kompetentlikka egaliklari asosiy omillardan biri sanaladi. Agarda o'qituvchi mutaxassislik fanlarining asoslarini puxta o'zlashtirgan bo'lsa-da, biroq, metodik kompetentlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda o'qitish jarayonini samarali tashkil etish mumkin emas. Binobarin, metodik kompetentlik amaliy xarakterga ega.

O'qituvchi tomonidan tashkil qilinayotgan har bir amaliy harakat pedagogik faoliyatning samarali yoki samarasiz, muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishiga olib keladi. Shu sababli pedagogika yo'nalishida faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalari (OTM)da bo'lajak o'qituvchilar, shu jumladan, musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda talabalarning metodik kompetentlik sifatlariga ega bo'lishlarini ta'minlash, uni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish talab qilinadi.

OTMda bo'lajak musiqa o'qituvchisi sifatida talabalarning metodik kompetentlikka ega bo'lishi ularni kelgusida o'quv mashg'ulotlarini tashkiliy jihatdan to'g'ri uyushtirish, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlovchi omillar, xususan, o'zining mavjud imkoniyatlaridan maqsadli foydalanishga tayyorlaydi.

Metodik kompetentlik pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari (ijtimoiy, shaxsiy, texnologik hamda ekstremal kompetentlik) sirasida kiruvchi maxsus (kasbiy) kompetentlikning ahamiyatli elementlaridan biri sanaladi. M.H.Usmonboyevaning ko'rsatishicha, maxsus (kasbiy) kompetentlik quyidagi asosiy elementlardan tarkib topadi: psixologik, metodik, axborot, kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqalar.[1.B.6]

Barcha pedagoglar qatori musiqa o'qituvchisi ham umumiy pedagogik kompetentlik sifatlariga ega bo'lish bilan birga maxsus kompetentlik sifatlarini o'zlashtira olishi zarur. Ye.L.Kisaxanova musiqa o'qituvchisining maxsus kompetentlik sifatleri qatorida quyidagilarni qayd etib o'tadi:

musiqiy-nazariy kompetentlik – garmoniya bo'yicha tahlil qila hamda topshiriqlarni hal qila olish; musiqiy asarlar bo'yicha annotatsiya (asar yuzasidan qisqacha ma'lumot) tayyorlay bilish; musiqiy asarlarni badiiy tur, janr, g'oya nuqtai nazaridan tahlil qila olish; musiqiy-tarixiy jarayonlarni qayta tiklay olish tajribasiga ega bo'lish;

xor hamda vokal dirijyorligi kompetentligi – xor jamoalariga dirijyorlik va vokal ansambliga rahbarlik qilish; xor partituralarini o'qiy olish; vokal ijrosi hamda uning ohangi to'g'ri bo'lishini ta'minlash tajribasiga ega bo'lish;

musiqiy ijrochilik kompetentligi – musiqiy materialning badiiy-interpretatsion hamda musiqiy asarning hissiy-obrazli ijrosi tahlilini amalga oshira olish; konsertmeysterlik hamda ijroning

badiiy-ijodiy xarakterda bo'lishi (asarni biror-bir musiqiy asbob yordamida ijro qilish; musiqiy asarni qog'ozdan o'qiy olish, eshitgan holda musiqani tanlash,

musiqiy ijroni bir ohangdan ikkinchi ohangga o'zgartirish)ga erishish;

metodik kompetentlik – musiqiy-tarbiyaviy jarayonni psixologik, musiqiy bilimlar hamda umumpedagogik nazariyalarga tayangan holda to'g'ri tashkil qilish; yaxlit holda ta'lim oluvchilarning musiqiy-estetik madaniyatini shakllantirish tajribasiga ega bo'lish.[2]

Ayni o'rinda Ye.L.Kisaxanovanning musiqa o'qituvchisida namoyon bo'ladigan maxsus kompetentlik sifatlarini guruhlash borasidagi fikrini biroz to'g'rilash lozim. Muallif tomonidan ko'rsatilgan dastlabki uchta kompetensiyaning har biri o'zaro yondosh holda (parallel) ravishda o'zida metodik kompetensiyani ham namoyon qiladi.

Muallifning fikriga tayangan holda aytish mumkinki, musiqa o'qituvchisining metodik kompetentligi negizida uning musiqashunoslik turkumidagi fanlar asoslari bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, musiqa ta'lim jarayonini tashkiliy jihatdan to'g'ri uyushtirish, o'rganilayotgan musiqiy asarning turi, janri hamda ustuvor g'oyalariga mos ravishda o'qitishning tashkiliy shakllari, ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalarini tanlash, talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirish, ularning faoliyatini nazorat qilish va oqilona baholash, shuningdek, talabalar musiqiy asarni o'zlashtirishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishsa, u holda korreksiyalash ishlarini samarali amalga oshirishga qaratilgan kompetensiyalar ko'zga tashlanadi.

Ye.I.Skafa, A.A.Borisova mutaxassisligidan qat'i nazar pedagoglar uchun xos bo'lgan "metodik kompetentlik" tushunchasini umuman quyidagicha to'g'ri yoritgan: pedagogning ta'lim jarayonida yuzaga kelib, o'quv-metodik vaziyatlar ta'sirida shakllanadigan kasbiy-metodik vazifalarni hal qilishga tayyorligi va qobiliyatini ifodalovchi kasbiy-shaxsiy tavsif.[3]

Musiqa o'qituvchisi ta'lim jarayonini metodik jihatdan tashkil

qilishda an'naviy o'qitishda qo'llanib kelinayotgan o'quv mashg'ulotlarining tashkiliy shakl, metod va vositalarini tanlash bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiyalardan ham maqsadli, o'rinli foydalana olishi zarur. Uning bu boradagi harakatini tanlanadigan texnologiyalar nuqtayi nazaridan ikki guruhga ajratish mumkin:

1) talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirishga yordam beradigan pedagogik texnologiyalar: o'qitishning innovatsion shakllari, interfaol metodlari, zamonaviy vositalari va ta'lim texnologiyalarini tanlash;

2) ta'lim jarayonini tashkil qilishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning funksional imkoniyatlaridan foydalanish.

Pedagog-musiqachining kasbiy kompetentlik darajasi quyidagilar bilan baholanadi: ta'lim dasturiga kiritilgan biror-bir vokal-xor asari bilan talabalarni tanishtirish; asar bo'yicha tahlilni amalga oshirish; asarni musiqiy-nazariy jihatdan to'liq tahlil qilish; asarning vokal-xor jihatlarini to'liq tahlil qilish;[4.B54] musiqiy asbob jo'rligida asarni ijro qilish

va xor asarini partiturasini amalga oshirish; asarni xor bilan o'rganish bo'yicha ish rejasini tuzish va metodik ishlarni amalga oshirish; [5.B.191] o'z faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish va shaxsan baholashni amalga oshirish; keyingi vaziyatlarni bashoratlay olish, boshlang'ich holat va rejalashtirilgan natijaning o'zaro muvofiq kelishini ko'rsatuvchi dalillar hamda hodisa yuzasidan asosli savollarni berish; dasturiy ta'minotning yangi turlari bilan talabalarni tanishtirish orqali musiqiy adabiyotlarda yoritilgan axborotlar, amaliy ko'rsatmalar bilan ishlay olish malakasiga egalik; zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq (diagramma, grafik, taqdimotlar asosida) taqdim qilgan holda ish faoliyati natijalarini rasmiylashtirish.[6]

**Taklif va tavsiyalar.** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Kompetentli mutaxassisga ega bo'lishdan iborat zamonaviy ta'limiy ehtiyoj, o'qitish sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash zaruriyatidan kelib chiqqan holda nafaqat OTM balki uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari uchun musiqa o'qitishga oid ko'p variantli, tenlash imkoniyatini beruvchi xilma-xil metodik loyihalarni o'z ichiga olgan axborot-metodik ta'minotni yaratish.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi yetakchiligida barcha musiqa tizimidagi fanlar misolida talabalarni kreativ va tanqidiy fikrlashga oid innovatsion o'quv adabiyotlarini yaratishga e'tiborni qaratish.

3. Didaktik tizimga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq qilish orqali musiqa ta'limini raqamlashtirish orqali o'zbek

segmentida bo'lajak musiqa o'qituvchilarida nafaqat metodik, shu bilan birga kommunikativ, ijtimoiy, kasbiy-mobil kompetentlikni rivojlantirishga imkon beradigan maxsus platformani yaratish.

4. Maxsus platformada respublika va xorijiy mamlakatlarda zamonaviy sharoitda musiqa ta'limini samarali o'rgatishga oid ilg'or tajribalarning jamlanib, doimiy, izchil boyitib borilishini ta'minlash

**Xulosa.** Ulosa o'rnida aytish mumkinki, zamonaviy ta'lim o'qituvchi hamda talabalardan kam kuch va kam vaqt sarflagan holda o'qitishda yuqori samaradorlikka erishishni taqozo qiladi. Bu esa o'z navbatida musiqa o'qituvchining o'qitishni innovatsion xarakterga ega tashkiliy shakl, metod, vositalardan xabardor bo'lishini taqozo qiladi.

Nazariy tahlil natijalari zamonaviy sharoitda musiqa o'qituvchilari ham barcha pedagoglar kabi axborot kompetentligiga ham ega bo'lishi zarurligini tasdiqladi. Musiqa o'qituvchisining axborot kompetentligi o'z mohiyatiga ko'ra metodik xarakterga egadir. Zero, musiqa o'qituvchisining axborot-kommunikatsion texnologiyalar, ularning funksional imkoniyatlaridan xabardorligi, ta'lim jarayonida zamonaviy gadjetlar: mobil qurilmalar, kompyuter texnologiyasi, Internet axborot tarmog'idan maqsadli, o'rinli va samarali foydalanishi uning o'qitish metodikasidan xabardorligini anglatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 6-б
2. Кисаханова Е.Л. Музыкально-исполнительская компетентность в структуре профессиональной культуры учителя музыки // <https://pedsovet.su/publ/71-1-0-4035>
3. Скафа Е.И., Борисова А.А. Ведущие принципы формирования методической компетентности будущих преподавателей высшей школы // Ж. Дидактика математики: проблемы и исследования. – Донецк: 2021. – № 54. – С. 54
4. Скорая музыкальная помощь. Классическая музыка // [https://vk.com/wall-99339872\\_20620](https://vk.com/wall-99339872_20620).
5. Рябчикова Е.П. Интерпретационная культура педагога-музыканта как важный элемент профессионально-педагогической компетенции // Ж. Нижегородское образование. – Нижегород: 2013. - № 3. – С. 191
6. Куздеубаева А.Б., Таубаева Р.К., Сабирова А.С. Основные тенденции технологии формирования профессиональной компетентности будущего учителя музыки на дисциплине “Основной музыкальный инструмент” // Ж. Вестник Евразийского национального университета имени Л.Н.Гумилёва. – Астана: 2023. - № 2 (14). – С. 207-208.



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

### BO‘LAJAK XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARINING INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (“Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fani misolida)

**Tojiboyeva Shohistaxon Komiljonovna**  
*Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

**Maqola haqida ma’lumot**  
**Qabul qilingan: 04.07.2024**  
**Qayta qabul: 08.07.2024**  
**Saytda mavjud: 10.06.2024**

**Muallif (lar)**  
**Sh.K.Tojiboyeva**



<https://doi.org/10.69891/uxij.v1i4.862>

**Muallif bilan aloqa**



[ikromjon2705@gmail.com](mailto:ikromjon2705@gmail.com)



<https://orcid.org/0009-0004-4179-6452>

© Sh.K.Tojiboyeva

**UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal**

Ochiq ma’lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

**Maxfiylik bayonoti**

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to‘g‘ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko‘rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

**Annotatsiya:** Mazkur maqola mediasavodxonlik va axborot madaniyati fani misolida bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish hususida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, kompetentlik, information-analitik kompetentlik hususida ham ayrim fikrlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** xorijiy til o‘qituvchisi, kompetentlik, information-analitik kompetentlik, rivojlanish, texnologiya, globallashuv, mediasavodxonlik, foydalanish.

**Аннотация:** В данной статье представлены взгляды на развитие информационно-аналитической компетентности будущих учителей иностранного языка на примере медиаграмотности и информационной культуры. Также в статье упоминаются некоторые моменты о компетентности, информационно-аналитической компетентности.

**Ключевые слова:** учитель иностранного языка, компетентность, информационно-аналитическая компетентность, развитие, технологии, глобализация, медиаграмотность, использование.

**Annotation:** This article presents opinions on the development of informational and analytical competence of future foreign language teachers on the example of media literacy and information culture. Also, some points are mentioned in the article about competence, information-analytical competence.

**Key words:** foreign language teacher, competence, information-analytical competence, development, technology, globalization, media literacy, use.

## **Kirish.**

Jahonda global axborot makonining yuzaga kelishi bilan ishlab chiqarishning turli sohalari mutaxassislarini mediasavodxonlikka bo'lgan ehtiyoji oshib bormoqda. So'nggi yillarda xorijiy tillarni chuqur o'rgatish, o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Xorijiy mamlakatlarning yetakchi ilmiy markazlari, oliy o'quv yurtlarida mediata'limning o'ziga xos xususiyatlari, mediasavodxonlikni shakllantirish vositalari va usullarini o'rganish ta'lim jarayonida mediateknologiyalar, mediamatnlardan foydalanish o'ta muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham mediasavodxonlik va axborot madaniyati ta'limi vositasida bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish, ularni zararli axborotlar ta'siridan himoya qilish, informatsion tahdidlar va ularni bartaraf etish layoqatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida ham chet tili darslarida mediasavodxonlikni shakllantirish metodologiyasi, shuningdek, o'rganilayotgan chet tilda ishlatiladigan ommaviy axborot vositalarining metodik imkoniyatlarini takomillashtirish, mediasavodxonlik vositasida axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishga doir ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, raqamli ta'lim muhitida bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarning informatsion tahdidlarga qarshi o'z-o'zini himoyalashning diagnostik-profilaktik tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida chet tillarni o'qitish tizimi sifatini xalqaro standartlarga muvofiq tarzda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani mazkur tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilab beradi. Shuning uchun ham, "ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o'z vaqtida berib borish orqali yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish madaniyatini oshirish"[1] vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Buning uchun esa mediasavodxonlik va axborot madaniyati vositasida bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

## **Adabiyotlar tahlili va metododlogiya.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni, 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son, 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5099-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son

Qarorilari mazkur masalaning dolzarbligini belgilab beradi.

## Tahlil va natijalar.

Ta'limga kompetent yondashuv bo'lajak kadrlarda hosil bo'lgan kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko'nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bois har bir fanni o'qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi.

Buning uchun, avvalo, "kompetensiya", "kompetentlik", "analitik kompetentlik", "informatsion kompetentlik", "integratsiya", "integratsion ta'lim", "informatsion-analitik kompetentlik" tushunchalarining mazmun-mohiyati, konseptual asoslarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

"Kompetensiya" atamasi fanda ilk bor XX asrning 50–60-yillarida qo'llangan. Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevositachuqur bilimga asoslangan qobiliyat, layoqatlilik darajasini anglatadi.[2.B.114] Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni bildiradi. Ko'plab olimlar tomonidan "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalariga berilgan ta'riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya'ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi deb talqin qilinadi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.[3.B.6-9] Shuningdek, kompetensiyalar bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Bo'lajak kadrlarda kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish muammosini professor A.Abduqodirov shunday ta'kidlaydi, kompetentlikni rivojlantirish – bu insonning butun umri davomida to'xtamaydigan jarayondir.[4.B.10] Pedagog olimlarimizning tadqiqotlarida kasbiy va pedagogga xos kompetentlikning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Jumladan, N.A.Muslimov o'zining tadqiqot ishlarida kasbiy kompetentlikni oltita sifat ko'rinishida keltirib o'tganlar:

1) motivatsion xislatlar (insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagan kasbiga bo'lgan ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi);

2) intellektual salohiyat (barcha rasmiy hujjatlar asosida o'qituvchi axborot

va ma'lumotlarni uzatishga, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi);

3) irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to'siqlarni, jismoniy va aqliy zo'riqlashlarni yenga olishlik, o'zini tuta bilish va tashabbuskorlik xislatlari);

4) amaliy ko'nikmalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, amallar, individning faoliyat va muloqotning turli sohalaridagi ko'nikmalari);

5) hissiy sifatlar (o'z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalarini shakllantirilishi (qahr, g'azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag'rurlik, qo'rqish, ko'ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishi hamda o'z hissiy holatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi);

6) o'z-o'zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik, vijdoniylik, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o'z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonch, o'z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi).[5.B.118] Demak, kompetentlik chuqur bilimga asoslangan qobiliyat, layoqatlilik darajasini anglatadi va bo'lajak kasbiy faoliyatdagi bilim va ko'nikmalarning rivojlangan darajasi va malakaning yuksak ko'rinishi hisoblanadi.

“Informatsion-analitik kompetentlik” integratsiyalashgan kompetensiya ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bir kompetensiyani shakllantirishdan ko'ra, bir nechta kompetensiyani uyg'unlikda shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. “Informatsion-analitik kompetentlik” informatsion madaniyat va analitik tafakkur

asosida shakllantiriluvchi bilim va ko'nikmalarning yuksak ko'rinishi hisoblanadi. Demak, informatsion-analitik kompetensiya – informatsion madaniyat va analitik fikrlash tarzini integratsiyalash asosida yuzaga keladigan kompetentlik hisoblanadi.

“Falsafa qomusiy lug'ati”da “analitika” atamasi “tahlil qilish, muhokama, isbotlash san'ati sifatida izohlanadi”.[6.B.25] Analitika atamasi ilk bor “Aristotel tomonidan mantiqiy tahlil texnikasiga berilgan nom sifatida qo'llangan. Uning “Analitika” nomli asarida fikrlashning bu yo'siniga taalluqli ikki jihat: murakkab butunlikka ega bo'lgan obyektни dastlab oddiy qismlarga ajratish va ularni tekshirish asnosida tafakkur yuritishning murakkablashib borishiga e'tibor qaratiladi”.[7.B.479] Demak, analitik fikrlash tarzi murakkab va chuqur tahlillarga asoslangan fikrlash usuli hisoblanadi.

Tadqiqotchi Sh.Hasanov fikricha, “analitik fikrlash tarzi – tahliliy fikr yuritish san'ati, biror muammo, masala, axborot, voqea-hodisani o'rganish jarayonida u haqida atroflicha, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to'xtamga kelish qobiliyati. Analitik tafakkur egasi tahlil qilinayotgan obyektни har tomonlama sinchiklab o'rganadi: murakkab axborotlarni qismlarga ajratadi, har bir so'z, jumla, detal, narsa ustida jiddiy fikr yuritadi, qismlarni o'zaro mantiqiy bog'laydi, maqbul xulosaga keladi va kerakli qarorlar qabul qiladi. Analitik qobiliyat egasi har qanday hodisa ustida fikr yuritganda narsa-hodisaning tashqi ma'nosini uqish bilangina

cheklanmay, uning ichki – botiniy ma’no qatlamlarini ham aniqlashga urinadi. Natijada tahlil etilayotgan obyekt yuzasidan atroflicha tushuncha yuzaga keladi. Analitik tafakkur muammo yoki masalaning oson va tez, to’g’ri va aniq hal etilishini ta’minlashga xizmat qiladi”. [8.B.11] Mazkur tarif asosida tadqiqotchi analitik fikrlash tarzining namoyon bo’lishini quyidagicha asoslaydi: “analitik tafakkur fikrlashning mantiq bilan qat’iy bog’langan, predmetni aniq, to’g’ri, obyektiv, har tomonlama tahlil etishga qaratilgan aqliy faoliyat turidir; analitik tafakkur – ijtimoiy hayotning hamma sohalari bo’yicha tahlil qilish, munosabat bildirish, o’tmishni anglash, bugunni idrok etish, kelajakni bashorat qilish, taraqqiyotning istiqbolli yo’llarini belgilash imkonini beradigan sermahsul fikrlash yo’sini; analitik tafakkur insonni innovatsion g’oyalarni ilgari surish, yangi texnologiyalarni yaratish, amaliyotga tatbiq etishga undaydigan yaratuvchan fikrlash tarzidir; ta’lim tizimida talabalarda analitik tafakkur qobiliyatini rivojlantirish – bu mustaqil fikrlaydigan, har qanday muammoga tezlik bilan oqilona yechim topa biladigan, fikriy qaramlikdan yiroq barkamol avlod tarbiyalash imkonini beradi. Analitik kompetentlik kishiga odam va olamni idrok etish quvvatini beradigan, uning fikrlash mexanizmini ratsional harakatga keltiradigan aql generatoridir”. [8.B.12] Demak, tafakkur ko’rinishlari orasida shaxs eruditsiyasi va intellektini oshirish borasida samaradorligi bilan alohida ajralib turuvchi turi analitik tafakkur hisoblanadi. Chunki analitik tafakkur o’rganilayotgan obyektga turli tarafdin yondashish, uning ichki va tashqi aloqalarini kompleks holda tekshirish va to’xtamga kelishni taqozo etadi. Analitik tafakkur yuritishda fikrlash sur’atining tezligi, masalaga

turli tomonda yondasha bilish, qamrovdorlik, muammoga eng muvofiq va samarali yechim topish singari jihatlar ustuvorlik qiladi.

## **Taklif va tavsiyalar.**

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari urish mumkin:

1. Kredit-modul ta’lim tizimi sharoitida bo’lajak xorijiy til o’qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning konseptual modellarini ishlab chiqish va ta’lim amaliyotiga tatbiq etish zarur.

2. Bo’lajak xorijiy til o’qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish uchun fanlararo hamkorlik tizimini takomillashtirish va bu bo’yicha metodik tavsiyalar, ilmiy-amaliy yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur.

Bo’lajak xorijiy til o’qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishda “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fani samaradorligini oshirishning ilg’or xorijiy tajribalarga asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

## **Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda, “Informatsion-analitik kompetentlik” integratsiyalashgan kompetensiya ko’rinishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bir kompetensiyani shakllantirishdan ko’ra, bir nechta kompetensiyani uyg’unlikda shakllantirish muhim vazifalardan ekanligi aniqlandi. Analitik tafakkur yangi axborot izlab topish, uni o’rganib, tizimga solish, taqqoslash, baholash, mantiqiy fikrlash,

dalillarga tayanish, mavjud axborotlarga tanqidiy qaray olish, olingan ma'lumotlar asosida to'g'ri to'xtamga kelish imkonini berishi xulosalandi. Axborotlarga tahliliy munosabatini shakllantirishga doir xorijiy tajribalar asosida bir qator rivojlangan mamlakatlarda nosog'lom axborot oqimlarining oldini olish, bartaraf etish va unga qarshi kurashishning o'ziga xos qonunchilik tizimi yaratilganligidan dalolat beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони// <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Нарзиева Н. Формирование исследовательских компетенции у учащихся на основе интегративного подхода // XV Международная научно-практическая конференция. World science: problems and innovations. МЦНС «Наука и просвещение». 30 ноября 2017.–Пенза, 2017.Часть 3. –С. 114.
3. Юсуфбекова Н.Р. Тенденции и законы инновационных процессов в образовании. Новые исследования в педагогических науках.– М: Педагогика, 1991. – №2. –С. 6-9
4. Абдуқуддусов О. Интегратив ёндашув – чуқур билим, яхши фазилатларни шакллантириш омили/–Т.: Халқ таълими Ж, 2000. – №5. – Б.10.
5. Муслимов Н.А. ва б. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. – Т.: “Фан ва технология” 2013. –Б. 128
6. Ғозиев Э.Тафаккур психологияси. Тошкент.: Ўқитувчи.– 1990. –Б. 25.
7. Мирқосимова М.М. Талабаларда аналитик тафаккурни ривожлантириш технологияси// НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2020 йил 4-сон. –Б. 479
8. Ҳасанов Ш. Адабий таълим жараёнида талабаларда аналитик тафаккурни ривожлантириш технологиясини такомиллаштириш. (Олий филологик таълим мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Наманган. АДУ. –Б. 11.



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

### ZAMONAVIY IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

**Xusanov Murodjon Sunnatullayevich**

*Qo'qon universiteti Exam Control departamenti boshlig'i, Toshkent davlat iqtisodiyot  
universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Maqola haqida ma'lumot**  
**Qabul qilingan: 04.07.2024**  
**Qayta qabul: 07.07.2024**  
**Saytda mavjud: 15.06.2024**

**Muallif (lar)**  
**M.S.Xusanov**



[10.69891/3060-4540.2024.1.1.004](https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.1.1.004)



**Muallif bilan aloqa**

[murodjon\\_0202@mail.ru](mailto:murodjon_0202@mail.ru)



<https://orcid.org/0009-0005-4304-5801>

© M.S.Xusanov

**UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal**

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

**Maxfiylik bayonoti**

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

**Annotasiya:** Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish sohasini intensiv rivojlantirish va raqamlashtirish natijasida kelib chiqadigan xatarlarni o'rganish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish masalalaridagi ilmiy ishlarning olib borilishi, muammoning oldini olishga, davlat boshqaruvi organlariga esa, raqamli xizmatlar iste'moli jarayonlaridagi va platformalardan foydalanishdagi barcha turdagi xavflarini barqaror kamaytirishga qaratilgan normalar va mexanizmlar tizimini yaratishga imkon berishi ta'kidlangan. Xizmat ko'rsatish sohasi milliy va jahon iqtisodiy tizimlarining o'sishini ta'minlashda ham, aholining turli guruhlarining hayot sifatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etishi va iqtisodiy hamda statistik tahlillari asosida xizmat ko'rsatish sohasining YaIMdagi ulushi va rivojlanish darajasi o'rtasida yaqin va to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligiga xulosa qilishimiz mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlari:** milliy iqtisodiyot, xizmatlar sohasi, transformatsiya, yalpi ichki mahsulot, xizmatlar sohasini rivojlantirish muammolari.

**Аннотация:** В данной статье проводится научная работа по изучению рисков, возникающих в результате интенсивного развития и цифровизации сферы услуг, и снижения их негативных последствий, норм и механизмов, направленных на предотвращение проблемы, а также для органов государственного управления. устойчиво снизить все виды рисков в процессах потребления цифровых услуг и использования платформ отмечается, что это позволяет создать систему. Показано, что сфера услуг играет важную роль в обеспечении роста национальных и мировых экономических систем и в повышении качества жизни различных групп населения, а на основе экономико-статистического анализа показано, что существует тесная и прямая связь между долей сектора услуг в ВВП и уровнем развития.

**Ключевые слова:** национальная экономика, сектор услуг, трансформация, валовой внутренний продукт, проблемы развития сферы услуг.

**Abstract:** This article conducts scientific work to study the risks arising from the intensive development and digitalization of the service sector, and reducing their negative consequences, norms and mechanisms aimed at preventing the problem, as well as for government authorities. to sustainably reduce all types of risks in the processes of consuming digital services and using platforms, it is noted that this makes it possible to create a system. It is shown that the service sector plays an important role in ensuring the growth of national and global economic systems and in improving the quality of life of various population groups, and based on economic and statistical analysis it is shown that there is a close and direct connection between the share of the service sector in GDP and the level of development.

**Key words:** national economy, service sector, transformation, gross domestic product, problems of development of the service sector.

## Kirish

Bugungi taraqqiy etgan zamon iqtisodiyotining rivojlanishi turli makroiqtisodiy va moliyaviy omillar ta'siridagi o'sishlar va pasayishlar, xar xil inqirozli vaziyatlarning tarmoqlarga ta'siri bilan kuzatiladi. Shunga ko'ra, mulkchilikning turli shakllari va iqtisodiy faoliyat turlari, shu jumladan xizmat ko'rsatish sohasi bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining samaradorligini ta'minlash inqirozli vaziyatlarning har xil turlariga munosabat bildirishning ilmiy asoslanganligi, oqilonaligi va samaradorligiga bevosita bog'liqdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, milliy iqtisodiyotdagi xo'jalik yurituvchi

sub'yektlarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik faoliyatini pasayishiga ta'siri nuqtai nazaridan eng xavflilari bo'lib makroiqtisodiy inqirozlarning kombinatsiyalashgan xarakterdagilari, ya'ni bir nechta toifa inqirozlarning elementlarini birlashtirgan ancha uzoq muddatli inqirozlar hisoblanadi.

Masalan, 1929-1933-yillarda AQShda shunday kombinatsiyalangan, o'ta xavfli inqiroz yuz berdiki, uning oqibatlarida kamida o'n yil davomida ta'sir etdi ("Buyuk depressiya" deb atalgan). U o'zida ortiqcha ishlab chiqarish, moliyaviy bozorlar inqirozi va iqtisodiyotda texnologik tuzilishidagi o'zgarishi bilan bog'liq inqiroz elementlarini mujassamlashtirgan.

2020-2021-yillardagi jahon inqirozi ham koronavirus pandemiyasi va moliyaviy bozorlar inqirozi sabab bo'lgan inqiroz elementlarini birlashtirgan xarakterga ega. Bundan tashqari, global virtual raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanish sur'atlari ham zamonaviy inqirozning rivojlanishiga turli ma'noda ta'sir o'tkazadi.


Umuman olganda, makroiqtisodiy inqiroz turiga qarab xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishni to'g'ri tashkil etilishini, ya'ni uzoq muddatli inqiroz sharoitida cheklangan moliyaviy, kadrlar va tashkiliy resurslardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Bu esa, xizmat bozorlari tarmog'ida talab etilgan ishlab chiqarish va taqdim etish hajmlarining nisbiy barqarorligini ta'minlashga imkon beradi.

2020-2021-yillardagi inqiroz xizmat ko'rsatish sohasining yangi yo'nalishlarini rivojlanishiga olib keldi. Hozirgi inqiroz ta'siri ostida shakllangan jahon iqtisodiyotida aholiga xizmatlarning asosiy turlarini taqdim etish hajmining o'zgarishi 1-rasmda keltirilgan.

Umuman olganda, ushbu inqiroz turizm, mehmonxonalar va umumiy ovqatlanish tashkilotlari kabi xizmat ko'rsatish sohalarining faoliyatiga ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatdi. Chunki 2020-yildagi vaziyatdan kelib chiqib, pandemiyaning birinchi va ikkinchi to'liqlari paytida jahon bo'ylab, aksariyat mamlakatlarda ushbu biznes yo'nalishidagi sub'yektlarning vaqtincha to'liq yopilishi, aholi muhim guruhlari harakatining past darajada saqlanishi hamda real pul daromadlarining kamayishi natijasida iste'mol talabining tushib ketishi fonida pasayish tendensiyalari kuzatildi.

Ko'rinib turibdiki, Kovid-19 pandemiyasi davrida kiritilgan cheklovlar natijasida yuzaga kelgan inqiroz ta'siri ayrim xizmat turlarida ham kuzatiladi. Jumladan, 2020-yilda 2019-yilga nisbatan turistik xizmatlar 65,8 %ga, mehmonxona xizmatlari 41,3 %ga, kafe va restoran xizmatlari 17,8 %ga, transport xizmatlari 16,9 %ga va maishiy xizmatlar 14,4 %ga kamaygan.

Albatta, pandemiyaning ilk davrida bu xizmat turlari o'z faoliyatini to'liq to'xtatgan va ehtiyojdan kelib chiqib, keyinchalik xizmatni muqobil etkazib berish usullariga o'tilgan. Ya'ni, kafe va restoranlar taomlarni etkazib berish, transportlar esa shu (kafe va restoranlar taomlari) va boshqa aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovarlarni (kundalik maishiy mollar, dori-darmon, oziq-ovqat va hk.) etkazib berish orqali o'z xizmatlarini ko'rsata boshlaganlar.



1-rasm. Jahon bozorida asosiy xizmat turlarining o'sish (pasayish) sur'atlari<sup>1</sup>

<sup>1</sup> World Annual Report. NY., 2021. P.273.

O‘z navbatida, tahlillarda tibbiy xizmatlarning 2,7 %ga, moliyaviy xizmatlarning 10,6 %ga, ta'lim xizmatlarining 21,7 %ga, AKT xizmatlarining 67,3 %ga va masofaviy etkazib berish xizmatlarining 2,3 barobarga oshganini kuzatishimiz mumkin.


Ta'lim xizmatlarining o‘shib borishiga masofaviy ta'limga o‘tilishi va buning afzalliklarini inobatga olgan holda, shuningdek, insonlarning bo‘sh vaqtlarida qo‘shimcha ta'lim olishga ehtiyojini oshib borishi natijasida xususiy ta'limning (qisqa muddatli kurslar, masalan til o‘qitish, dasturlash, buxgalteriya asoslari va hk.) ham ommaviy ravishda masofaviy yo‘lga qo‘yilishi sabab bo‘lgan.

Tabiiy ravishda pandemiya davrida AKT xizmatlariga ehtiyoj keskin ortdi va bu xizmat turining rivojlanishiga olib keldi. Shu bilan birga, AKT xizmatlari masofaviy tarzda ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan xizmat turlaridan biri bo‘lib, pandemiyadan so‘ng ham bu xizmat turini masofaviy ko‘rsatish tobora ommalashib bormoqda.

Demak, pandemiya davrida aholi ehtiyojini qondirish va ta'qiqlar tufayli masofaviy xizmat ko‘rsatish turi jadal rivojlanib

borgani, shu bilan birga, ushbu xizmat turining afzalliklari va qulayliklari bois aholi o‘rtasida keng ommalashganini e’tirof etish mumkin.

Xizmatlarda qo‘shilgan qiymatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini tahlil qiladigan bo‘lsak (2-rasm), rivojlangan davlatlarda xizmatlarning yalpi ichki mahsulotidagi ulushini (67,8 %) o‘rta rivojlangan (52,8 %) va past rivojlangan (34,4 %) davlatlardan yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, mintaqalar bo‘yicha, Evropa ittifoqi mintaqasida 64,7 %ga, Evropa va Markaziy Osiyo (rivojlangan davlatlardan tashqari) mintaqasida 63,4 %ga, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida 56,6 %ga, Markaziy Osiyo davlatlari bo‘yicha, Qozog‘iston Respublikasida 52,6 %ga, Qirg‘iz Respublikasida 52,4 %ga, Turkmanistonda 51,2 %ga, O‘zbekiston Respublikasida 41,6 %ga va Tojikiston Respublikasida 32,3 %ga to‘g‘ri kelmoqda.



**2-rasm. Xizmatlarda qo‘shilgan qiymatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi<sup>2</sup>**

<sup>2</sup> Жаҳон банкининг ахборот тизими: <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>.

Umuman olganda, zamonaviy inqirozning xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik sub'yektlari faoliyati samaradorligiga ta'sirini quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'nalishida:

- aksariyat sanoat bozorlari, ayniqsa aholiga maishiy va boshqa pullik xizmatlar ko'rsatish ulushi (milliy va xalqaro turizm sohasidagi xizmatlar, mehmonxonalar hamda restoranlar va b.) hajmining sezilarli va nisbatan keskin qisqarishi;

- xizmatlar va tovarlar uchun virtual bozorlarning jadal o'sishi, bunday bozorlarning izchil rivojlanishini ta'minlaydigan turli vositachilik tuzilmalarining faol rivojlanishi (kompaniyalar va savdo tarmoqlarining mobil ilovalari bozorlari, etkazib berishning turli tijorat va ko'ngilli shakllari va b.);

- inqirozli vaziyatlar doirasida tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun integratsiya va kooperatsiya jarayonlari rolini izchil oshishi (bu kabi nisbatan noaniq inqiroz ta'siri I. Adizes va M.M. Gamburg [6, 10] kabi zamonaviy iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan).

2. Xizmat ko'rsatuvchilarning moliyaviy rivojlanishini ta'minlash yo'nalishida:

- bank xizmatlari (kreditlari)ning kamayishi yoki ma'lum darajada qisqarishi (masalan, loyihalarga uzoq muddatli kreditlarni ajratish);

- xizmat ko'rsatish sohasi tashkilotlari faoliyatining o'rtacha likvidligi va to'lov qobiliyatining sezilarli darajada pasayishi;

- tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatining moliyaviy barqarorligi darajasining pasayishi;

- aksiyalar va korporativ obligatsiyalarni chiqarish nuqtai nazaridan fond bozorlari salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarining qisqarishi (2020-yilda jahon fond bozorining global indeksining umumiy pasayishi 15,1% ni tashkil etdi );

- virtual bozorlar salohiyatining oshib borishi (Internet-banklar, virtual investitsiya kompaniyalari va fondlari, kriptovalyuta bozorlari, startaplar va b.).

3. Inqirozli vaziyat doirasida har xil turdagi moddiy ishlab chiqarish resurslarini boshqarish nuqtai nazaridan:

- xizmat ko'rsatish sohasi kompaniyalarining asosiy fondlarini takror ishlab chiqarish parametrlarining yomonlashishi, birinchi navbatda, inqiroz sharoitida moliyaviy va investitsiya resurslarining etishmasligi natijasida unumdorlikning pasayishi;

- yoqilg'i-energetika sohasidagi ko'zda tutilmagan holatlar natijasida, tejamkorlik dasturlarini amalga oshirishning murakkabligi.

4. Xizmat ko'rsatish sohasidagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mehnat resurslariga ta'siri nuqtai nazaridan:

- xizmat ko'rsatish sohasi sub'yektlarning o'z xodimlarining katta qismini masofadan ish bilan ta'minlash formatiga o'tkazilishi (Kovid-19 pandemiyasi davridagi cheklovlar sabab);

- autsorsing imkoniyatlaridan faol foydalanilishi;

- moliyaviy-iqtisodiy reslarning cheklanganligi (qisqarib borishi) sababli korporativ ta'lim dasturlarini sezilarli darajada qisqartirib borilishi.

5. Tashkiliy va rivojlanishni boshqarish masalalarida:

- kadrlar oqimining keskin oshishi, mehnat jamoalarida kadrlarni rivojlantirishdagi barqarorlik darajasining pasayishi;

-aholining muhim guruhlarini umumiy ijtimoiy-psixologik holatining yomonlashishi (postkovid sindromi, qoʻrquv, vahima va izolyasiyalanish oqibatlari);

- inqirozli vaziyatda tashkiliy rivojlanishga innovatsion yondashuvlarni shakllantirish va amalga oshirish uchun talabning ortishi [14] (masalan, F. Lalu tomonidan asoslangan "Feruza tashkilotlar" deb nomlangan konsepsiya tamoyillarini qoʻllash).

6. Iqtisodiy hamkorlik va integratsiya masalalarida:

-davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining iqtisodiy integratsion salohiyatidan foydalanish intensivligining ma'lum darajada oshishi;

-iqtisodiyotning korporativ sektoridagi integratsiya jarayonlarining (birlashish/qoʻshilish) koʻpayishi yohud bu yoʻnalishda faollikning oshishi (odatda, oʻzaro manfaatli va doʻstona boʻlmagan xarakterdagi qoʻshilish va/yoki sotib olish jarayonlari makroiqtisodiy noaniqlik sharoitida faollashadi, an'anaviy ravishda uzoq muddatli va global inqirozli vaziyat tufayli yuzaga keladi);

- xizmat koʻrsatish sohasidagi kichik va oʻrta toifadagi kompaniyalarning inqiroz sharoitida kuchayib borayotgan moliyaviy va iqtisodiy xavf-xatarlarga chidamliligi darajasining oshishi (hududiy sanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish

nuqtai nazaridan kooperatsiya va integratsiya jarayonlarini jadallashtirish natijasida);

- raqamli iqtisodiyotning virtual segmentining (Internet fondlari, kripto aktivlari birjalari, virtual strategik investorlar va b.) kundalik hayotga kirib kelishi.

7. Iqtisodiyotni raqamlashtirish va xizmat koʻrsatish sohasiga raqamli texnologiyalarni kirib kelishi masalalarida:

-xizmat koʻrsatish sohasi tashkilotlariga aloqador raqamli platformalarni joriy etish jarayonlarining jadal rivojlanishi;

- xizmat koʻrsatish sohasi tashkilotlari faoliyatida Internet-marketing vositalaridan, shu jumladan ITM (ijtimoiy tarmoqlar marketingi) mexanizmlaridan foydalanilishi;

- xizmat koʻrsatish sohasidagi tadbirkorlik sub'yektlarining virtual kapital bozorlari, axborotlar, xizmatlar va boshqalar bilan oʻzaro hamkorligining faollashishi;


-asosiy faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish shakllaridan biri sifatida kompaniyalar tomonidan biznes-jarayonlarda virtual outsorsing aloqalarini rivojlantirilishi va takomillashtirilishi, ayniqsa uzoq muddatli makroiqtisodiy inqiroz sharoitida dolzarbdir.

Shunday qilib, xizmat koʻrsatish sohasidagi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini ta'minlash uchun 2020 – 2021-yillardagi inqiroz ta'sirining

oqibatlarini doirasi asosan salbiy ahamiyat kasb etadi.

Shunday bo'lsada, uzoq muddatli inqirozli vaziyat xizmat ko'rsatish sohasini diversifikatsiyalash, yangi xizmat turlarini yo'lga qo'yish, raqamli iqtisodiyot, xususan raqamli texnologiyalar salohiyatidan keng foydalanishni rag'batlantirish masalalarida ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, undagi iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlarni kengaytirish, ayniqsa soha tashkilotlarining turli inqirozlarga bardoshlilikiga erishish masalalari doimo ham ilmiy, ham amaliy qiziqish uyg'otadi.



3-rasm. Raqamli xizmatlar jahon bozori hajmining o'zgarib borish tendensiyalari (2020 yilni 2012 yilga nisbatan, %da)<sup>3</sup>

Bugungi jadal sur'atlar bilan taraqqiy etayotgan zamonda boshqa tarmoqlar kabi xizmatlar sohasida ham istiqbolli rivojlanish yo'nalishlaridan biri bu – raqamlashtirishdir. Shu bilan birga, raqamlashtirish imkoniyatlaridan asosiy faoliyatga qo'shimcha ravishda operasion va savdo faoliyatiga sarflanadigan vaqtni qisqartirish, veb-sayti yoki mobil ilovasi orqali xizmat ko'rsatuvchining xizmatlarni ko'rsatish va iste'molchilar orasida keng tarqatish borasidagi imkoniyatlarini oshirish, iste'molchilar bilan, shuningdek, raqamli xizmatlarning shu kabi innovatsion xizmat

turlarini ishlab chiqaruvchilar bilan aloqani yaxshilash uchun ham keng foydalaniladi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni xizmatlar sohasiga kirib kelishi va umuman olganda sohaning raqamli iqtisodiyotga integratsiyasi natijalarini tahlil qilib ko'rsak. Yuqoridagi 3-rasmda jahon iqtisodiyotidagi raqamli xizmatlar bozorining imkoniyatlari dinamikasi keltirilgan.

Ko'rsatilgandek, 2012-2020-yillarda global raqamli xizmatlar bozorining hajmi 9,82 baravar oshdi, o'z

<sup>3</sup> Горохина П.А. Стратегическое управление экономическими системами сферы услуг: Дисс. к.э.н. Санкт-Петербург, 2022. С.30.

navbatida, buni jahon xizmatlari bozorining har qanday an'anaviy (oflayn) segmentining rivojlanish sur'ati bilan aslo taqqoslab bo'lmaydi.

Shu o'rinda, bu kabi o'sishlar, ya'ni yuqoridagi rasmda keltirib o'tilgan trend yaqinligi (approximatsiyasi) jadal o'sish (eksponentsial) xarakteriga ega.

Demak, 2020 – 2021-yillardagi inqiroz va uning oqibatida yuzaga kelgan sanitariya-epidemiologik holat natijasidagi cheklovlar global raqamli xizmatlar bozorining jadal rivojlanishiga tabiiy ravishda sezilarli turtki bergan.

Umuman olganda, inqiroz tufayli jadal raqamlashtirishga yuz tutgan xizmat ko'rsatish yo'nalishlariga shaxsiy oilaviy doktorlarning maslahatlari, onlayn ta'lim xizmatlari, bank va sug'urta xizmatlari, har qanday turdagi maslahat xizmatlari, davlat xizmatlari (bevosita tashrif buyurish talab etilmadiganlari), tovarlarni masofadan etkazib

berish xizmatlarini misol qilib keltirib o'tishimiz mumkin.

Bundan tashqari, dasturchilar va boshqa ishlab chiqarish jarayonida bevosita inson ishtiroki talab etilmaydigan faoliyat yo'nalishlari ham faol raqamlashtirishga yuz tutdi.

Aynan raqamlashtirish, pirovardida harajatlarni (vaqt va moliyaviy nuqtai-nazardan) qisqartirishga, xizmat ko'rsatuvchi sub'yektlar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, to'liq raqamlashtirishga erishib bo'lmaydigan yo'nalishlar ham mavjud bo'lib, ularga inson bilan bevosita fizik aloqa o'rnatiladigan xizmatlar kiradi. Masalan, sartareshlik xizmatlari, maishiy xizmatlar, tibbiy-dagnostik va kasalxonadagi bemorga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar (jarrohlik, travmatolog, shoshilinch yordam va h.k.).

1-jadval.

**Raqamlashtirish salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari  
bo'yicha xizmatlar turlari toifalari<sup>4</sup>**

<b>To'g'ridan-to'g'ri raqamlashtirib bo'lmaydigan xizmatlar</b>	<b>Samarali raqamlashtirilishi va virtual nushaga ega bo'lishi mumkin bo'lgan xizmatlar</b>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sartaroshxona xizmatlari va boshqa shunga o'xshash xizmatlar.</li> <li>2. Aholiga kimyoviy-quruq tozalash xizmatlari, kir yuvish va boshqa shunga o'xshash maishiy xizmatlarni taqdim etish.</li> <li>3. Bemor bilan bevosita aloqada bo'lishni talab qiladigan tibbiy xizmatlar.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tibbiy maslahat xizmatlari.</li> <li>2. Ta'lim xizmatlari.</li> <li>3. Bank va sug'urta xizmatlarining barcha turlari.</li> <li>4. Maslahat xizmatlari.</li> <li>5. Axborot xizmatlari, shu jumladan masofadan turib ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar.</li> <li>6. Tovarlarni masofadan etkazib berish xizmatlari.</li> <li>7. Davlat xizmatlari.</li> </ol>

<sup>4</sup> Куйидаги манбалардан фойдаланиб тузилган: Гордин В.Э., Сущинская М.Д. Менеджмент в сфере услуг. М.: Бизнес-пресса, 2007; Яшировский О.В. Проблемы пространственного развития бизнеса сферы услуг / О.В.Яшировский // Деловая газета. – 2018. - №23. – С. 4.

Yuqoridagi 1-jadvalda raqamlashtirish salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha xizmatlar turlari toifalari keltirib o'tilgan.

Demak, 1-jadvalda ko'rsatilganidek, aholi va tashkilotlarga ko'rsatiladigan xizmatlarning mutlaq aksariyat qismi samarali raqamlashtirilishi va o'zining virtual analogiga ega bo'lishi mumkin (keyinchalik virtual xizmatlar bozorining tegishli segmentlarida taqdim etiladi). Shu o'rinda, jismoniy shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish bilan bog'liq xizmatlarni bevosita raqamlashtirish imkoniyatsiz, ammo ushbu xizmatlar guruhini boshqarish nuqtai-nazaridan, yuqorida aytib o'tilganidek, raqamlashtirish potentsialidan foydalanish mumkin.

Shu o'rinda, shuni ta'kidlash o'tish mumkinki, maxsus adabiyotlarda raqamlashtirishning xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarni rivojlantirishdagi ustunliklari haqida batafsil yoritilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu turdagi asosiy afzalliklar :

zamonaviy raqamli iqtisodiyotning virtual segmenti makonida bozor hajmining sezilarli darajada oshishi;

iste'molchilar o'zlari uchun eng maqbul xizmatlarni tanlash imkoniyatining tubdan o'sishi;

xizmat ko'rsatish sohasidagi kompaniyalarning biznes-jarayonlari, xususan o'ziga xos operatsion va tranzaksion xarajatlarini virtual outsorsing salohiyatidan, shu jumladan masofadan turib ish bilan ta'minlash imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi;

ITM (ijtimoiy tarmoqlar marketingi) imkoniyatlaridan foydalanish jarayonlarini faollashtirish hisobiga, virtual iqtisodiy

makonda xizmat ko'rsatishni rivojlantirish orqali xizmatlar marketingi salohiyatining sezilarli o'sishi.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan zamonaviy raqamli iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan sub'yektlaridan biri bu raqamli platformalardir. Raqamli platformalar raqamli iqtisodiyotning virtual segmentining katta miqdordagi moliyaviy va intellektual resurslarini to'playdi, kapitallashuv darajasining oshishi va infratuzilmasini rivojlantirishga tubdan ta'sir qiladi.

2015-2020-yillar baholash natijalariga ko'ra, raqamli platformalarning yalpi daromadi 7,12 baravar oshganini ko'rish mumkin, bu esa, zamonaviy raqamli iqtisodiyotning boshqa segmentlari daromadlarining o'sish sur'atlaridan yuqori ekanligini anglatadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda zamonaviy boshqaruv sharoitida raqamli platformalarning mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini tushunishga doir yagona yondashuv mavjud emas. Aslida, ushbu masala nazariyasi shakllanish bosqichida bo'lib, o'rganilayotgan sohaning iqtisodiy amaliyotning dinamik o'zgarishlaridan ortda qolayotganini ko'rish mumkin.

Shu bilan bir qatorda, zamonaviy raqamli platformalarni bir qator muhim iqtisodiy va boshqaruv xususiyatlariga ko'ra tasniflash mumkin. Quyidagi 2-jadvalda xizmat ko'rsatish sohasidagi raqamli platformalarning tasnifi keltirib o'tilgan.

2-jadval.

**Xizmat ko'rsatish sohasidagi raqamli platformalarning tasnifi<sup>5</sup>**

<b>Tasniflash xususiyatlari</b>	<b>Xizmat ko'rsatish sohasidagi raqamli platformalarning turlari</b>
---------------------------------	----------------------------------------------------------------------

<sup>5</sup> Горохова П.А. Стратегическое управление экономическими системами сферы услуг. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт-Петербург. 2022.

1. Platformaning ko'p qirraliligi	- tor doirada ixtisoslashgan tezkor platformalar; - turli xil xizmatlarning keng doirasini taklif qiluvchi platformalar.
2. Ta'sischi bilan integratsiya	- faqat ta'sischi kompaniyaning mijozlariga xizmat ko'rsatadigan platformalar, (bank platformalari, sug'urta kompaniyalari va b.); - salohiyati mijozlarning cheksiz doirasiga xizmat ko'rsatishga ega platformalar.
3. Tijorat komponenti	- xizmat ko'rsatish sohasidagi raqamli platformalar; - shartli ravishda, notijorat raqamli platformalar (elektron hukumat va b.).
4. Iqtisodiyotning real sektoriga integratsiya	- sof virtual xizmatlarni taqdim etishga qaratilgan raqamli platformalar; - virtual va oflayn xizmatlarni taqdim etadigan raqamli platformalar; - iqtisodiyotning real sektoriga kengayishga qaratilgan raqamli platformalar.
5. Internet xizmatlari bilan hamkorlik (ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va b.)	- Internet xizmatlari bilan korporativ bog'langan raqamli platformalar (Yandeks korporatsiyasi platformalarining barchasi va b.); - marketing sohasida Internet xizmatlari bilan bog'langan raqamli platformalar.
6. Kripto aktivlarining iqtisodiy salohiyatidan foydalanish	- token (blokcheyn) murojaatlari qismida kripto aktivlar birjalari bilan birlashtirilgan raqamli platformalar; - IPOning ICO (initial coin offering)ini amalga oshiradigan raqamli platformalar; - shartnoma munosabatlari smart-contracting tamoyillariga asoslangan raqamli platformalar; - kripto aktivlarining iqtisodiy salohiyatidan foydalanmaydigan raqamli platformalar va blokcheyn texnologiyalari.
7. Raqamli platformaning o'z to'lov nushalarini (surrogat) chiqishi	- o'zlarining to'lov nushalaridan foydalanadigan raqamli platformalar (Yandex Group platformalari, virtual birja platformalari va h.k.); - umumiy qabul qilingan real va virtual to'lov tizimlaridan foydalanadigan raqamli platformalar.

Bizning fikrimizcha, raqamli platformaning mazmuni zamonaviy xizmat ko'rsatish sohasining progressiv rivojlanishining maxsus drayveri sifatida ikki jihatdan ko'rib chiqilishi lozim:

1. Tor ma'noda, raqamli platforma-bu jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarga ularning operatsion faoliyatini yoki xizmatlarni iste'mol qilish jarayonini raqamlashtirish jarayonlari

(ushbu sohadagi tizimli ixtisoslashtirilgan xizmatlar orqali takomillashtirish nuqtai nazaridan ixtisoslashtirilgan xizmatlar to'plamini taqdim etishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan portal va/yoki mobil dasturni o'zida ifodalaydi).

2. Keng ma'noda, raqamli platforma raqamli xizmat va virtual/yoki fizik iqtisodiy makon sub'yektlarining barqaror

o'zaro manfaatli integratsiyasini boshqarish mexanizmi bo'lib, savdo bozorlarining o'sishini, ularning faoliyatidagi o'ziga xos operasion yoki tranzaksion xarajatlarning pasayishini va shu asosda rivojlanishining moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda milliy iqtisodiyotimizda keng tarqalgan xizmat ko'rsatish sohasidagi raqamli platformalarga Olx, Uzum, Express24, Bringo, My taxi, InDriver, Yandex va boshqa savdo xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha bir qator platformalarni misol qilib keltirib o'tishimiz mumkin. Ularning barchasida veb-sayti bilan birga mobil ilovasi ham mavjud bo'lib, bu bozorga keng tarqalish hamda platforma xizmatlaridan foydalanish sifatini oshirishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, shuni ham ta'kidlash kerakki, xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiyotning turli masalalari va muammolarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda sohani raqamlashtirishning intensiv jarayonlari bilan bog'liq xavf-xatarlarni o'rganishga etarlicha e'tibor berilmagan. Bir qator tadqiqotlar xizmat ko'rsatish sohasi sub'yektlarining rivojlanish xavfini tahlil qilishga bag'ishlangan (G.A. Axtamova, Dj. Li, R.I. Xikmatov va boshqalar), ammo aslida ushbu tadqiqotlar doirasida iqtisodiyotning ko'rib chiqilayotgan segmentini raqamlashtirish xavfi deyarli tahlil qilinmagan.

Umuman olganda, xizmat ko'rsatish sohasini intensiv rivojlantirish va raqamlashtirish natijasida kelib chiqadigan xatarlarni o'rganish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish masalalaridagi ilmiy ishlarning olib borilishi, muammoning oldini olishga, davlat boshqaruvi organlariga esa,

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/6600413>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. 7 b. // <https://lex.uz/docs/3107036>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-maydagi "2012-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi PQ-1754-son qarori // <https://lex.uz/docs/2011220>

raqamli xizmatlar iste'moli jarayonlaridagi va platformalardan foydalanishdagi barcha turdagi xavflarini barqaror kamaytirishga qaratilgan normalar va mexanizmlar tizimini yaratishga imkon beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sarhisob qilib aytish mumkinki, xizmat ko'rsatish sohasi milliy va jahon iqtisodiy tizimlarining o'sishini ta'minlashda ham, aholining turli guruhlarining hayot sifatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy va statistik tahlillarimiz asosida xizmat ko'rsatish sohasining YaIMdagi ulushi va rivojlanish darajasi o'rtasida yaqin va to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligiga xulosa qilishimiz mumkin. Shu o'rinda, bu tahlillarni amalga oshirishimiz, ya'ni xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishimiz uchun zamonaviy statistika uslubiyoti asosida shakllantirilgan sifatli rasmiy statistika ma'lumotlar zarur bo'ladi.

Xizmatlar sohasi mezo, makro va mikro darajada (dunyo, mamlakat, mamlakat tarkibidagi hududlar hamda sub'yektlar darajasida) zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning etakchi draveyri ekanligini hisobga olgan holda, fikrimizcha, milliy strategiyalar va rejalarini tuzishda, maqsadli dasturlarni shakllantirishda sohani rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarida ko'rsatilayotgan xizmatlarning turini kengaytirish hamda sifatini yaxshilash va boshqa tarmoqlar rivojida soha salohiyatidan maksimal darajada foydalanishni nazarda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-son qarori. <https://lex.uz/docs/5421233>.
5. Ахмедов Т.М. “Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексное развитие регионов Узбекистана”. -Т.: Фан, 1992 г. С.65.
6. Гамбург М.М. Управление развитием сферы услуг волонтерского туризма на основе образовательной деятельности: Дисс. к.э.н. – М., 2021; Российский рынок услуг: Исследование Авито Услуг и Data Insight: самозанятые исполнители и микробизнес в различных категориях услуг и регионах [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://business.avito.ru/services-research> (дата обращения 12.09.2021) и др.
7. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования// Экономика, М., 1999 г.-С. 301.
8. Адизес, И. Управление жизненным циклом корпораций. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2021 г. С.149.
9. Хусанов, М.С. (2024). Мамлакат иқтисодиётида соғлиқни сақлаш хизматлари ролининг иқтисодий-статистик таҳлил қилиш. Академические исследования в современной науке, 3(12), 117-121.
10. Бегалов Б.А., Мамадалиев О.Т. Реформы в сфере статистики, результаты и перспективы развития, Статистика и Экономика. Научно-практический экспертный журнал. Москва, 2021; 18(1):4-13. <https://doi.org/10.21686/2500-3925-2021-1-4-13>.
11. Горохина П.А. Стратегическое управление экономическими системами сферы услуг. Диссертационная работа на соискание ученой степени кандидата доктора экономических наук. Санкт-Петербург, 2022. С.30.
12. Фиоктистов К.С. Особенности стартапов в сфере услуг / К.С. Фиоктистов // Менеджмент и инновации. – 2021. - №1. – С. 54.
13. Хусанов, М.С. (2024). Миллий иқтисодиётда хизматлар соҳаси ролининг иқтисодий-статистик таҳлил қилиш. Economics and Innovative Technologies, 12(2), 209-221.
14. Лалу Ф. Открывая организации будущего. М.: АльпинаПаблицер, 2021.
15. Бегалов Б.А., Мамадалиев О.Т., Анализ тенденций экономического роста Республики Узбекистан, «Рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг статистик таҳлилини такомиллаштиришнинг назарий ва услубий жиҳатлари», халқаро илмий-амалий анжуман, Кадрлар малакасини ошириш ва статистик тадқиқотлар институти, Токшент, 27 май 2022 й., И-том.
16. Jahon savdo va rivojlanish tashkilotining (YuNKTAD) 2021-yil uchun global sharhi // <https://etradeforall.org/>.
17. Хикматов Р.И. Развитие сферы услуг в современных условиях. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Казань, 2006.
18. Хусанов, М. С. (2024). Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасини статистик таҳлил қилиш. Kokand University Research Base, 974-978.



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

### BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARDA TARIXIY VA MA'NAVIY IDEALLARGA AKSIOLOGIK MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (TARIX FANLARI MISOLIDA)"

**Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

**Maqola haqida ma'lumot**  
**Qabul qilingan: 04.07.2024**  
**Qayta qabul: 07.07.2024**  
**Saytda mavjud: 15.06.2024**

**Muallif (lar)**  
**D.A.Tursunova**



[10.69891/3060-4540.2024.1.1.004](https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.1.1.004)

**Muallif bilan aloqa**
6. [www.emeraldinsight.com](http://www.emeraldinsight.com)
7. [www.Statista.com](http://www.Statista.com)
8. [www.Question.com](http://www.Question.com)
9. [www.forbes.com](http://www.forbes.com)



### TYUBEGATAN GALOGEN QATLAMIDAGI AKSESSOR ELEMENTLAR

Yusufova Nazokat Shuxratjon qizi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangier filiali NMKT II-bosqich  
talabasi

Maqola haqida ma'lumot  
Qabul qilangan: 19.07.2024  
Qayta qabul: 27.07.2024  
Saytda mavjud: 31.07.2024

Muallif (lar)  
N.Sh.Yusufova



[10.69891/3060-4540.2024.4.1.001](https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.4.1.001)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13218820>

OpenAir



[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=universaljurnal.uz&oq=](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=universaljurnal.uz&oq=)

Muallif bilan aloqa



<https://orcid.org/>

n.sh.yusufova123gmail.com

© N.Sh.Yusupova

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

**Аннотация:** Формирование галогенного слоя на трубке можно представить следующим образом. В юрский геологический период вся территория юго-запада Узбекистана, юго-востока Туркменистана и юга Таджикистана отделилась от мирового океана в верхнеюрский период и превратилась в огромный солеобразующий бассейн. В этой статье вы получите информацию о аксессуарных элементах галогенного слоя тубегатан

**Ключевые слова:** суспензия, биологическая, галоген, гипс, натрий, хлорид, известняк

**Annotation:** The formation of the halogen layer on the tube can be imagined as follows. During the Jurassic geological period, the entire territory of the south-west of Uzbekistan, the south-east of Turkmenistan, and the south of Tajikistan separated from the world ocean during the Upper Jurassic period and turned into a huge salt-forming basin. In this article, you will get information about the accessory elements of the tubegatan halogen layer

**Keywords.** suspension, biological, halogen, gypsum, sodium, chloride, limestone

**Annotatsiya:** Naychada galogen qatlamining hosil bo'lishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Yura geologik davrida O'zbekistonning janubi-g'arbiy qismi, Turkmanistonning janubi-sharqi va Tojikiston janubi butun hududi yuqori yura davrida jahon okeanidan ajralib, ulkan tuz hosil qiluvchi havzaga aylandi. Ushbu maqolada siz tubegatan halogen qatlamining qo'shimcha elementlari haqida ma'lumot olasiz

**Kalit so'zlar.** suspenziya, biologik, galogen, gips, natriy, xlorid, ohaktosh

Cho'kindi jinslar tarkibida juda oz miqdordagi tarqoq holatda bo'lgan elementlar aksessor yoki kichik elementlar ma'lumdir. Tuzli qatlamlarda mikroelement miqdori borligini tekshirish xom ashyodan kompleks foydalanishda amaliy ahamiyatga ega. Kaliyli tuz qatlamlarida asosiy tuz minerallari yig'ilishi bilan hosil bo'lishida tuzlarda aralashma hosil qiluvchi (**F, B, Br, Sr, Rb, Cs, Zr** va boshqalar) aksessor elementlari birikmalari ham yig'iladi. Cho'kish jarayonida tuzlar mikroelementlar bilan terrigen materiallar (sinish) kirishi hisobiga to'yinishi mumkin. **Fe, Mn, P, V, Cr, Co, Cu, Pb, Zn** va boshqalar asosan suspenziya tarkibida va qisman eritma ko'rinishida joydan-joyga o'tadi. Qattiq fazaga birinchi navbatda qiyin eriydigan va biologik faol birikmalar **Fe, Mn, Al, P, CaCO<sub>3</sub>, SiO<sub>2</sub>** va bir qator kichik elementlar birikmalari: **V, Cr, Ca, Cu, Fe** va boshqalar ketadi. Engil eriydigan mineral tuzlar va **B, Si, Br** ning birikmalari eritmada qoladi va yig'iladi. **B, Sr, Br** ning fasial (cho'kindi jinslarining ajralish sharoitlari – ko'l, dengiz) joylanishi **Fe, Mn, P, Cr, Ni, Cu, V** joylanishidan farq qiladi. Birinchi guruh **Sr, B, Br** galofil, boshqasini klastofil deb ataladi. Tyubegatan konining mineralogik tarkibi bir xil jins hosil qiluvchi asosiy minerallari – angidrit, silvin va karnallit. Aksessor komponentlari karbonatlar, brom, bor, temir, **Mn, Zn, Pb, Li, Rb** va boshqalar kichik elementlardir. Terrigen quyqalar (loy, alevrolit) oz miqdorda. Tuzdagi erimaydigan moddalarning miqdori oshishi bor, brom, mikroelementlarning miqdorini oshishi bilan bog'liq. Tyubegatan koni o'z kimyoviy tarkibi bo'yicha sulfatsizlar deb ataluvchi qatoriga kirali, ya'ni bu erda sulfatlar faqat angidrit va gips holda bo'ladi. Galogen qatlamlarining quvvati Tyubegatanda 700-800m ga etishiga uning shakllanishida katta

og'irlikdagi dengiz suvlari ishtirok etganligini ko'rsatadi. Galogen qatlamlarini hosil qiluvchi quyqalar to'planish tezligi kalsiy sulfat uchun 0,2-2 mm/yil, osh tuzi 60-80 mm/yil, Tyubegatan konining angidrit jinslari zonasi 200000 yilda, tuz qatlami – 10000-20000 yilda shakllangan deyish mumkin. Kaliy tuz konlarini shakllantirish bo'yicha mavjud bo'lgan ma'lumotlarni umumlashtirib, Tyubegatan galogen qatlamining hosil bo'lishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Yura geologik davrida O'zbekistonning barcha janubiy-g'arbi, Turkmanistonning janubiy-sharqi, Tojikistonning janubi barcha hududi yuqori yura vaqtida dunyo okeanidan ajralib chiqqan va tuz hosil qiladigan ulkan havzaga aylangan. Havza tubida ohaktosh cho'kindilari hosil bo'la boshlagan geologik izlanishlar ma'lumotlari bo'yicha quvvati 600m bo'lgan ohaktoshlar qatlamlari hosil bo'lgan. Ohaktosh o'tirishi ohaktosh, bitum va oltingugurt qatlamlari bilan angidrit qatlamiga almashgan. Angidrit qatlamlarining quvvati 350-400m tashkil etadi. Tyubegatan konining qirqimlaridan ko'rinib turibdiki, havzaning umumiy evolyusiyasi tuzli havzalarning asosiy qonuniyatiga bo'ysungan. Rapada asta-sekin oldin natriy xlorid, so'ngra kaliy xlorid va nihoyat magniy xlorid yig'ilib borgan. Bu vaqtning o'zida havzaning bir qismlarida tosh tuzi, boshqalarida – silvinit, karnallit tushishi bosqichigacha borib, qatlamlar hosil bo'la boshlagan. Tuzli havzaning qanday qismida jadal egilish va qaysi vaqtda u amalga oshganiga bog'liq holda kaliy tuzlari qatlamining joyi va galitning quvvati aniqlanadi. Havzaning

sharq qismida cho'kish kaliy tuzlari bo'lgan jinslarning mavjudligi, bitta kristallanishigacha borgan, keyinchalik gorizontga tegishliligi janubiy konsentrlangan sho'r suvlar g'arbga siqib O'zbekiston, janubiy Tojikiston va chiqarilgan, u erda Gaurdak, Tyubegatan, janubiy-sharqiy Turkmanistonning konlari Oqbosh va boshqalar kaliy konlari hosil sinxron va ularning shakllanishi bir xil bo'lgan. Kimyoviy tarkibi va tuzilishi yaqin sharoitlarda o'tgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hakimov, & B. Haydarov (2023). IMPACT OF REAGENTS-REGULATORS ON FLOTATION. Science and innovation, 2 (A10), 19-22. doi: 10.5281/zenodo.8419901
2. Haydarov, A. Mamirov, & Sh. Pardaboyeva (2023). SYNTHESIS OF NEW MULTIFUNCTIONAL IONITES AND THEIR APPLICATION IN SORPTION OF SOME METALS. Science and innovation, 2 (A7), 156-160. doi: 10.5281/zenodo.8200095
3. Haydarov, G. Ibodullaeva, Sh. Pardaboyeva, & N. Ermamatova (2023). DRINKING WATER PURIFICATION METHODS. Science and innovation, 2 (D5), 178-184. doi: 10.5281/zenodo.7974073
4. Амирова А.М. Физико-химические исследования фосфоритов Центральных Кызылкумов и процессов их кислотной переработки. // Узб. хим. ж. - Ташкент, 1983. - № 1. - С. 18-26.
5. Волынскова Н.В. Разработка и внедрение технологии производства экстракционной фосфорной кислоты из фосфоритов Центральных Кызылкумов. Дисс. ... канд. техн. наук. - Ташкент, 2010. - 172 с



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

### SHAHAR ELEKTR TA'MINOTIDA TURAR JOY BINOLARINI ELEKTR YUKLAMALARINI HISOBIY QUVVATINI ANIQLASH

Ne'matov Muxriddin Mahammadjon o'g'li

*Toshloq texnik xizmat ko'rsatish texnikumi, Elektr stantsyalari tarmoqlari va tizimlari  
kafedrası*

#### Maqola haqida ma'lumot

Qabul qilingan: 19.07.2024

Qayta qabul: 27.07.2024

Saytda mavjud: 31.07.2024

#### Muallif (lar)

M.M.Ne'matov

[10.69891/3060-4540.2024.4.1.001](https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.4.1.001)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13256117>

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=  
=universaljurnal.uz&og=](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=universaljurnal.uz&og=)

#### Muallif bilan aloqa

<https://orcid.org/0009-0005-0214-2584>

[muxriddinnematov935@gmail.com](mailto:muxriddinnematov935@gmail.com)

© M.M.Ne'matov

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

#### Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

#### Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolaning maqsadi shahar elektr ta'minotidagi mikrohududning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida turar-joy binolarining to'la hisobiy quvvatini aniqlashga qaratilgan. Hisobiy quvvatni hisoblash jarayonida QMQ 2.04.17-2019 turar-joy va jamoat binolarining elektr jihozlarid an turar-joy binolari elektr yuklamalarining hisobiy quvvatni aniqlashda foydalanildi. Hisobiy quvvatlarni aniqlash jarayonida foydalaniladigan koeffitsiyentlarning qiymatlariga alohida to'xtalib o'tildi. Shu bilan birga maydon koeffitsiyenti qiymatini aniqlashda ishlab chiqilgan formula shahar elektr ta'minotida turar joy binolarini elektr yuklamalarini hisobiy quvvatini aniqlashda maqolaning qo'shadigan hissasini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** turar-joy binolari, solishtirma hisobiy elektr yuklamasi, kuch iste'molchilari, isitish tizimi, maydon koeffitsiyenti, oila koeffitsiyenti, qulaylik koeffitsiyenti

**Аннотация:** Целью данной статьи является определение полной расчетной мощности жилых зданий для обеспечения потребности микрорайона в электроснабжении города. В процессе расчета расчетной мощности использовался QMQ 2.04.17-2019 для определения расчетной мощности электрооборудования жилых и общественных зданий и электрических нагрузок жилых зданий. Специально затронуты значения коэффициентов, используемых в процессе определения расчетных мощностей. При этом разработанная формула для определения значения коэффициента площади служит повышению вклада статьи в определение расчетной мощности жилых зданий в электроснабжение города.

**Ключевые слова:** жилые дома, удельная расчетная электрическая нагрузка, энергопотребители, система отопления, коэффициент площади, семейный коэффициент, коэффициент комфортности.

**Abstract:** The purpose of this article is to determine the full calculated power of residential buildings in order to meet the needs of the microregion in the city electricity supply. In the process of calculating the calculated power, QMQ 2.04.17-2019 was used to determine the estimated power of electrical equipment of residential and public buildings and electrical loads of residential buildings. The values of the coefficients used in the process of determining the estimated capacities were specially touched upon. At the same time, the formula developed for determining the value of the area coefficient serves to increase the contribution of the article in determining the calculated power of residential buildings in the city electricity supply.

**Key words:** residential buildings, specific estimated electrical load, energy consumers, heating system, area factor, family factor, comfort factor

**Kirish.** Shahar elektr ta'minoti tizimi - bu shahar va qisman shahar atrofi hududida joylashgan kommunal, sanoat va transport elektr energiyasi iste'molchilari uchun texnologik jarayonlarni ta'minlaydigan elektr stantsiyalari, pasaytiruvchi va o'zgartiruvchi podstantsiyalari, ta'minlovchi va taqsimlovchi liniyalari va elektr qabul qiluvchilar majmuidir. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan bugungi kunga kelib shahar elektr ta'minoti tizimini [1] va undagi rejimlarni elektron hisoblash mashinalaridan foydalangan holda hisoblash bo'yicha [2, 3] bir qator ishlar amalga oshirilgan. Shu bilan bir qatorni elektr energiyasi ta'minoti tizimidagi muhim elementlardan biri bo'lgan kuch transformatorlari va ularning shikastlanishi bo'yicha ham [7-11] adabiyotlarda ishlar amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda texnika va texnologiyaning rivojlanib borishi, undan foydalanayotgan aholi sonining ortib borishi iste'molchilarning iste'mol qiladigan elektr energiyasining hisobiy quvvatlarini yuqori aniqlikda hisoblashni talab etmoqda. Elektr ta'minotini loyihalash bosqichida hisoblash ishlarida noaniqliklar mavjud bo'lsa, elektr ta'minotida qisqa tutashuvlarni yuzaga keltirib elektr qurilmalarning shikastlanishiga va iste'molchilarni elektr energiyasi ta'minotidan uzilishiga olib keladi [6].

1-rasmda shaharlarning elektr ta'minoti tavsiflanishi ifodalangan.



1-rasm. Shaharlarda elektr ta'minoti tavsiflanishi [5]

Shahar elektr ta'minotini elektr energiyasi bilan ta'minlashda asosan shaharlardagi markaziy ko'chalar, hiyobonlar, jamoat joylaridagi elektr iste'molchilar, elektr yoritish chiroqlarini elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash kiradi. Shaharlardagi turar-joy binolariga ko'p qavatli uylar, pansionatlar, villalar, yer uylari va shu kabi aholi yashaydigan binolari kiradi. Bunda [2] ga asosan elektr iste'molchilar elektr energiyasi bilan ta'minlash darajasi bo'yicha III toifaga mansub bo'lib, 16 va undan yuqori qavatli turar-joy binolarining signalizatsiya chiroqlari I toifali iste'molchilar turiga mansub bo'ladi. Jamoat binolariga kafe, restoran, barlar, umumiy ovqatlanish joylari, sartaroshxonalar, mehmonxonalar, bog'cha, maktab, oliy ta'lim muassasalari va shu kabi jamoat foydalanadigan binolar kiradi. Bular maydoni, ishchi soni, o'quvchi soni kabi parametrlariga ko'ra elektr ta'minoti bilan ta'minlash darajasiga ko'ra guruhlanadi. Masalan: sarataroshxonalarda 15 ta va undan ko'p sarataroshlar ishlaydigan sarataroshxonalar elektr ta'minoti toifasiga ko'ra II guruhga, 15

ishchigacha III toifaga mansub bo'ladi.

**Usullar va materiallar.** Turar-joy binolari elektr yuklamalarining hisobiy quvvatini aniqlashda Qurilish me'yoriy qoidalarining QMQ 2.04.17-2019 turar-joy va jamoat binolarining elektr jihozlaridan turar-joy binolari elektr yuklamalarining hisobiy quvvatni aniqlashda foydalanildi.

Turar-joy binolarining elektr yuklamalarini hisobiy quvvati ( $P_{xis.t.j.b.}$ ) ni aniqlash quyidagi formulaga asosan amalga oshiriladi:


$$P_{xis.t.j.b.} = P_{xis} + 0,9 \cdot P_{kuch} \quad (1)$$

Bu yerda  $P_{xis}$  – turar-joy binolarining elektr yuklamalarining hisobiy quvvati,

$P_{kuch}$  - tkuch elektr yuklamalarini hisobiy quvvati,  
 turar-joy binolarining elektr yuklamalarining hisobiy quvvati quyidagi formulaga asosan amalga oshiriladi:

$$P_{xis} = P_{sol} \cdot n \cdot K_{oila} \cdot K_{kvad} \cdot K_{kom} \quad (2)$$

bu yerda  $P_{sol}$  - turar-joy binolarining elektr yuklamalarining solishtirma hisobiy quvvati, bu odatda 1-jadvaldan aniqlashimiz mumkin [1].



**2-rasm. Turar-joy binolari solishtirma hisobiy quvvatini aniqlash omillari**

Bunda elektr yuklamalarining solishtirma hisobiy quvvati binodagi xonadonlar soniga, isitish tizimiga, kondetsionerning o'rnatilgan yoki o'rnatilmaganligiga, xona haroratiga bog'liq holda tanlanadi. Agar binodagi xonadonlar soni jadvalda keltirilgan qiymatlarda mavjud bo'lmasa, u holda interpolatsiya usulidan foydalangan holda  $P_{sol}$  aniqlaymiz [4].

$n$  – xonadonlar soni

$K_{kvad}$  - xondadonning umumiy maydon koeffitsiyenti. QMQ 2.04.17-2019 turar-joy va jamoat binolarining elektr jihozlari qismida umumiy maydoni 55 metr kvadratgacha bo'lgan xonadonlar uchun bu koeffitsiyent 1 ga teng deb

qabul qilinadi. Undan oshgan har bir metr kvadrat uchun isitish tizimi tabiiy gaz bo'lgan xonadonlar uchun 1% va qolgan qolatdagi isitish tizimiga ega xonadonlar uchun 0,5% ga zzzortirilgan holda hisoblanadi [2]. Bunda maydon koeffitsiyenti 25% dan ortib ketmaslik shartini bajarish lozi, ya'ni:  $Max(K_{maydon1}) = 1,25; Min(K_{maydon1}) = 1;$

$$K_{maydon1} = 1 + \frac{K_{maydon} - 55 m^2}{100} \cdot a \quad (3)$$

Bu yerda

$$\begin{cases} a = 1; & \text{isitish tizimi tabiiy gaz bo'lganda} \\ a = 0,5; & \text{isitish tizimi suyultirilgan gaz yoki elektr bo'lganda} \end{cases}$$

$K_{oila}$  – oila koeffitsiyenti, oilalar soni 3 tagacha bo'lganda 1,5; agar oilalar soni 4 va undan ko'p bo'lsa - 2 koeffitsient bilan aniqlanishi kerak.

Bunda bitta ota-onani 3 ta farzandi bo'lsa, ulardan 2 tasi uylangan oilali bo'lsa 3 ta oila hisoblanadi. Agar uchchala farzandi ham uylangan bo'lsa unda 4 ta oila hisoblanadi.

1-jadval. Turar-joy binolarining solishtirma hisobiy quvvati

№ p p	Elektr iste'molchilar	Solishtirma elektr yuklama qabul qiluvchilar kVt/xonadon													
		Xonadonlar soni													
		1-3	6	9	12	15	18	24	40	60	100	200	400	600	1000
1	Apartments with slabs as follows: Tabiiy gaz	3	2,3	1,75	1,45	1,3	1,15	1	0,8	0,7	0,6	0,5	0,45	0,43	0,4
2	Suyultirilgan gaz (guruhlangan qurilmalar ham) va qattiq yonilg'i	4	2,6	2	1,65	1,5	1,35	1,15	1	0,9	0,8	0,75	0,7	0,65	0,5
3	8 kW gacha elektr energiyasi Maishiy konditsionerli tabiiy gaz plitalari bo'lgan kvartiralar va harorat, °C:	7	3,5	2,8	2,4	2,15	2	1,8	1,5	1,3	1,15	1	0,9	0,85	0,8
4	1) 25 dan 29 gacha	4,1	2,9	2,2	1,8	1,63	1,45	1,25	0,95	0,8	0,65	0,5	0,36	0,33	0,3
5	2) 29 dan 33 gacha	4,1	3,05	2,35	2	1,8	1,6	1,4	1,1	0,95	0,75	0,55	0,45	0,4	0,35
6	3) 33 dan 37 gacha	4,1	3,15	2,5	2,15	1,95	1,75	1,55	1,2	1,05	0,9	0,7	0,55	0,43	0,4
7	4) 37 va undan yuqori Suyultirilgan gaz va qattiq yoqilg'i plitalari (shu jumladan guruhlangan qurilmalar) va konditsionerli turar-joylarda hisoblangan harorat °C bo'lgan uylar:	4,1	3,3	2,7	2,35	2,15	1,95	1,7	1,4	1,25	1,05	0,8	0,65	0,53	0,45
8	1) 25 dan 29 gacha	5,1	3,2	2,45	2	1,8	1,65	1,4	1,15	1	0,85	0,75	0,6	0,55	0,42
9	2) 29 dan 33 gacha	5,1	3,35	2,6	2,2	2,0	1,8	1,55	1,3	1,15	0,95	0,8	0,7	0,63	0,46
10	3) 33 dan 37 gacha	5,1	3,45	2,75	2,35	2,15	1,95	1,7	1,4	1,25	1,1	0,95	0,8	0,7	0,5
11	4) 37 va undan yuqori	5,1	3,6	2,95	2,55	2,35	2,15	1,85	1,6	1,45	1,25	1,05	0,9	0,75	0,55
12	Harorat quyidagicha °C bo'lgan turar-joylarda quvvati 8 kVtgacha bo'lgan elektr plitalari bo'lgan uylar:	8,1	4,1	3,25	2,85	2,5	2,3	2,05	1,65	1,4	1,2	1	0,8	0,75	0,7
13	1) 25 dan 29 gacha	8,1	4,25	3,4	3,05	2,65	2,4	2,2	1,8	1,55	1,3	1,05	0,9	0,82	0,75
14	2) 29 dan 33 gacha	8,1	4,35	3,55	3,2	2,8	2,6	2,35	1,9	1,65	1,45	1,2	1	0,9	0,8
15	3) 33 dan 37 gacha	8,1	4,5	3,75	3,4	3	2,8	2,5	2,1	1,85	1,6	1,3	1,1	0,95	0,85
15	4) 37 va undan yuqori	8,1	4,5	3,75	3,4	3	2,8	2,5	2,1	1,85	1,6	1,3	1,1	0,95	0,85

Bu yerda  $\begin{cases} a = 1,5; & \text{agar } n_{oila} \leq 3 \\ a = 2; & \text{agar } n_{oila} > 4 \end{cases}$

$K_{kom}$  - Yaxshilangan qulaylik sinfiga kiruvchi kvartiralarda nisbiy yuklamalarni 1,2 koeffitsiyent bilan, yuqori darajadagi qulaylik sinfiga -1,4 koeffitsiyent bilan olinadi.

Bu yerda  $\begin{cases} a = 1,2; & \text{yuqori darajadagi qulaylik koeffitsiyenti uchun} \\ a = 1,4; & \text{o'rtava quyi darajadagi qulaylik koeffitsiyenti uchun} \end{cases}$

Yuqori quvvatli kuch elektr iste'molchilarini quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$P_{kuch} = P_{lift} + P_{s.e.j} \quad (4)$$

$P_{lift}$  –lift qurilmalarining hisobiy quvvati.

$P_{s.e.j}$ - sanitar-epidemiologik jihozlarning hisobiy quvvati

Lift qurilmalarini hisobiy yuklamasi ( $P_{lift}$ ) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi, kVt:

$$P_{lift} = K_{t.k} \cdot \sum_1^n P_{x.L} \quad (5)$$

Bu yerda  $K_{t.k}$ – talab koeffitsiyenti, lift qurilmalari soni hamda qavatlar soniga bog'liq holda 2-jadvaldan tanlanadi,  $n$  – lift qurilmalari soni;  $P_{x.L}$  – passport

ma'lumotlarida keltirilgan lift elektr motorining quvvati, kW.

List qurilmalari 5 va undan yuqori qavatli binolar uchun o'rnatiladi.

2-jadval

№	Lift qurilmalari soni	$K_{t,k}$ talab koeffitsiyenti	
		12 qavatgacha	12 va undan yuqori
1	2-3	0,8	0,9
2	4-5	0,7	0,8
3	6	0,65	0,75
4	10	0,5	0,6
5	20	0,4	0,5
6	25 and up	0,35	0,4

*Jadvalda mavjud bo'lmagan qiymatlar uchun talab koeffitsiyenti qiymati interpolatsiya usulidan foydalangan holda aniqlanadi.*

3-jadval

Bino qavatlar soni	Quvvat iste'moli kW	Har bir seksiyaga to'g'ri keladigan lift qurilmalari soni
5-9	3,5-4,5	1
10-12	7	2
13-20	11,2-17	3
21-25	30	4

*Jadvalda mavjud bo'lmagan qiymatlar uchun lift qurilmalari quvvati qiymatini interpolatsiya usulidan foydalangan holda aniqlanadi.*

Turar-joy binolari uchun kerakli bo'lgan to'la quvvat qiymatini quyidagi ifoda orqali hisoblashimiz mumkin [4]:

$$S_{y.u.} = \sqrt{(P_{xis} + 0,9 \cdot \sum P_{kuch})^2 + (P_{xis} \cdot tg\varphi_{xon} + 0,9 \cdot \sum P_{kuch} \cdot tg\varphi_{y.q.})^2} \quad (6)$$

Bu yerda  $tg\varphi_{xon}$  – turar-joy binolari uchun reaktiv quvvat koeffitsiyenti, issiqlik ta'minoti turiga qarab olinadigan doimiy miqdor.

$(tg\varphi_{xon} = 0,29;$  isitish tizimi elektr energiyasi bo'lgan xonadonlar uchun  
 $tg\varphi_{xon} = 0,2;$  isitish tizimi boshqa turdagi xonadonlar uchun

$tg\varphi_{y.q.}$  - Lift qurilmalarining motori uchun reaktiv quvvatni hisoblash koeffitsiyenti. Uning qiymati lift qurilmalari uchun  $tg\varphi_{y.q.} = 1,17$  ga teng.

### NATIJA VA MUHOKAMALAR.

Toshloq shaharchasida joylashgan mikrohududimizda 12 qavatli, 9 qavatli va 4 qavatli binolarni elektr ta'minoti loyihasi amalga

oshirilgan. Bunda 48 qavatli bino 81 ta xonadon uchun, 9 qavatli bino 81 ta xonadon uchun, 4 qavatli bino 48 ta xonadon uchun mo'ljallangan. Xonadonlarimizning o'rtacha maydonlar hisoblarni osonlashtirish uchun bir xil deb olib, mos ravishda 60 metr kvadrat, 74 metr kvadrat va 75 metr kvadratdan ajratilgan. Gaz ta'minoti mavjudligi sababli isitish tizimi tabiiy gaz orqali amalga oshiriladi. Qulaylik darajasi shahr markazidan 1 daraja uzoqlikda joylashganligini e'tiborga olib yuqori darajada olindi. Xona xarorati o'rtacha 34°C haroratga moslab isitish tizimidagi elektr ta'minoti olindi.

Solishtirma xisobiy quvvatni aniqlashda uchchala binoyimiz ham 1-jadvaldagi xonadonlar soniga mos kelmaganligi sababli interpolatsiya usulidan foydalanib hisobiy quvvatlar aniqlanadi.

$$P_{64} = y_1 + \frac{x - x_1}{x_2 - x_1} \cdot (y_2 - y_1)$$

$$= 0.8 + \frac{75 - 60}{100 - 60} \cdot (0.65 - 0.8)$$

$$= 0.997 \text{ kVt}$$

$$P_{81} = y_1 + \frac{x - x_1}{x_2 - x_1} \cdot (y_2 - y_1)$$

$$= 0.8 + \frac{48 - 60}{100 - 60} \cdot (0.65 - 0.8)$$

$$= 0.74 \text{ kVt}$$

$$P_{48} = y_1 + \frac{x - x_1}{x_2 - x_1} \cdot (y_2 - y_1)$$

$$= 0.95 + \frac{48 - 40}{60 - 40} \cdot (0.8 - 0.95)$$

$$= 0.74 \text{ kVt}$$

Har bir binoyimiz uchun maydon koeffitsiyentini (3) formuladan foydalangan holda hisoblab chiqamiz:

$$K_{kv1} = 1 + \frac{S - 55 \text{ m}^2}{100} \cdot 1 = 1 + \frac{60 - 55}{100} \cdot 1$$

$$= 1.05$$

$$K_{kv2} = 1 + \frac{S - 55 \text{ m}^2}{100} \cdot 1 = 1 + \frac{74 - 55}{100} \cdot 1$$

$$= 1.19$$

$$K_{kv3} = 1 + \frac{S - 55 \text{ m}^2}{100} \cdot 1 = 1 + \frac{75 - 55}{100} \cdot 1$$

$$= 1.2$$

Maydon koeffitsiyentlarimiz [4] ga muvofiq 1 va 1,25 oralig'ida bo'lganligi sababli, koeffitsiyentlarning qiymatlarini o'zgartirmasdan qabul qilamiz.

Xonadonlarimiz yuqori qulaylik darajasiga ega ekanligi sababli uchhala turar-joy binoyimiz uchun qulaylik darajasi koeffitsiyentini [4] ga muvofiq 1,4 deb qabul qilamiz. (1) formuladan foydalangan holda turar-joy binolarimiz uchun hisobiy quvvatni aniqlaymiz.

[5] ga ko'ra 5 va undan yuqori qavatli binolar uchun lift qurilmalari o'rnatishimiz mumkin. 9 va 12 qavatli binolarimiz uchun lift qurilmalarini quvvatini (5) ga asosan aniqlaymiz. Bunda lift qurilmalari quvvatini va sonini 3-jadvaldan. Talab koeffitsiyentini 2-jadvaldan foydalangan holda aniqlaymiz. Quyidagiga ega bo'lamiz:

$$P_{lift9} = 3 \cdot 0.8 \cdot 4.5 = 10,8 \text{ kVt}$$

$$P_{lift12} = 4 \cdot 0,8 \cdot 7 = 22,4 \text{ kVt}$$

Mikrohududimiz uchun kerakli bo'lga to'la quvvatni (6) ga muvofiq aniqlaymiz. Hisoblash natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval.

№	Hisobiy quvvat $P_{xis}$ kVt	Lift qurilmalari $P_{lift}$ kVt	To'la quvvat $S_{y.u.}$ kVA
1	178.06	61.586	180.26
2	88.76	10.8	130.01
3	89.51	0	92.04

Mikrohududimiz uchun kerakli bo'lga to'la quvvatimiz 402,31 kVA.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqotning maqsadi shaharda joylashgan mikrohududlarning hisobiy quvvatlarini aniqlashga qaratilgan. Maqolada Toshloq shaharchasidagi 3 ta ko'p qavatli binoning to'la iste'mol quvvatini qurilish me'yoriy qoidalarga muvofiq aniqlandi. Bunda 9 qavatli va 12 qavatli binolar uchun lift qurilmalar o'rnatilishi e'tiborga olinib to'la quvvat hisoblanganda uchta ko'p qavatli binoyimiz uchun 402,31 kVA quvvat bilan ta'minlanishi lozimligi aniqlandi. Kelgusida mikrohududlarda joylashgan ko'p qavatli turar-joy binolarini hisobiy quvvatini aniqlashda yuqorida keltirilgan usuldan foydalanish orqali ancha samarali natijalarga erishish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А.А. и другие, Использование языка программирования delphi при анализе аварийных отключений в энергетических системах. Актуальная наука, 10 (15), 2018 г. ст. 12-16
2. Namidjonov Z. and others, “Reactive power compensation in power grids”, Universum: технические науки. 2021. №11-6 (92). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/reactive-power-compensation-inpower-grids>
3. Eraliyev A.Kh. and others, “Increasing efficiency of turbo generators in heat electric centers”, European science, 6, 2019 г., ст 48-54
4. Qurilish me’yorlari va qoidalari. Turar-joy va jamoat binolarining elektr jihozlari. QMQ 2.04.17-2019. Toshkent, 2019 y., 86-b.
5. A.G‘. Saidxodjayev, “Shaharlar elektr ta’minoti”, Toshkent, 2015 y., Fan va texnologiya, 320-b.
6. A.Abdullayev, Z.Tuychiev, “Qisqa tutashuv sodir bo‘lganda kuch transformatorlarining chulg‘amlarini deformatsiyalanishiga ta’sir etuvchi omillarining tahlili”, Farg‘ona vodiysida fan va texnologiya» Ilmiy konferensiya materiallar to‘plami Namangan sh., 11 - 12 may 2023 - yil, 87-88- betlar
7. Z.Tuychiev, A.Abdullayev “Kuch transformatorlarining chulg‘amlarini shikastlanishi va ularning diagnostikasi tahlili”, FarPI ilmiy texnika jurnali, 2023, maxsus son T.27, №11, 74-78-betlar
8. A.Abdullayev. “Kuch transformatori texnik holatini diagnostikalash usulini takomillashtirish“, FarPI ilmiy texnika jurnali, 2022, maxsus son T.26, №11, 189-191-betlar
9. 3.3.Туйчиев и другие, “Анализ видов повреждений обмоток трансформатора”, VIII Международной научно-практической конференции «Энергетика и энергосбережение: теория и практика» сборник научных трудов 6-8 декабря 2023 года, Кузбас, ст. 402-408
10. A. Abdullayev, “Analysis of power transformers in operation”, Международная молодежная научная конференция Тинчуринские чтения – 2024 «Энергетика и цифровая трансформация» 24 – 26 апреля 2024 г., ст. 3-6
11. М.Кобилов и другие, “Исследование влияние отклонений напряжения в сетях электропередачи на режимы работы электрических устройств”, Международная молодежная научная конференция Тинчуринские чтения – 2024 «Энергетика и цифровая трансформация» 24 – 26 апреля 2024 г., ст. 3-6



### JUGLANS REGIANING XALQ XO'JALIGIDAGI AXAMIYATI VA TARKIBI

Tursunboyev Xusayn Xabibullo o'g'li

*Namangan davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo (turlari bo'yicha) yo'nalishi talabasi*

**Maqola haqida ma'lumot**  
**Qabul qilingan: 19.07.2024**  
**Qayta qabul: 27.07.2024**  
**Saytda mavjud: 31.07.2024**

**Muallif (lar)**

**X.X.Tursunboyev**

[10.69891/3060-4540.2024.4.1.001](https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.4.1.001)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13798879>



OpenAir



[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=universaljurnal.uz&oq=](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=universaljurnal.uz&oq=)

**Muallif bilan aloqa**



[tursunboyevxusaynjon@gmail.com](mailto:tursunboyevxusaynjon@gmail.com)

© X.X.Tursunboyev

**UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal**

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

**Maxfiylik bayonoti**

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

**Annotasiya:** Mazkur maqolada Juglans regia (yong'och daraxti)ning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va kimyoviy tarkibi o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yong'oqning ko'p tarmoqli foydali xususiyatlari – yog'moy sanoatida, tibbiyotda va qishloq xo'jaligida keng qo'llanilishi aniqlangan. Shuningdek, uning tarkibida mavjud bo'lgan mikro va makroelementlar inson salomatligi uchun muhim bo'lgan funksiyalarni bajaradi. Ushbu maqola xalq xo'jaligida yong'och daraxtining ahamiyatini yanada chuqurroq o'rganish va uning kimyoviy tarkibiy qismlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muhim ma'lumotlarni beradi.

**Kalit so'zlar:** Juglans regia, biologik faol moddalar, kislotalar, xromatografik va analitik metodlar, mebel sanoati.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение и химический состав Juglans regia (ореха грецкого) в народном хозяйстве. По результатам исследований установлено, что грецкий орех обладает множеством полезных свойств – его широко используют в нефтяной промышленности, медицине и сельском хозяйстве. Также содержащиеся в нем микро- и макроэлементы выполняют важные функции для здоровья человека. В данной статье представлена важная информация по дальнейшему изучению значения орехового дерева в народном хозяйстве и практическому применению его химических компонентов.

**Ключевые слова:** Juglans regia, биологически активные вещества, кислоты, хроматографические и аналитические методы, мебельная промышленность.

**Abstract:** This article examines the importance and chemical composition of Juglans regia (walnut tree) in the national economy. According to the results of the research, it was found that walnut has many useful properties – it is widely used in the oil industry, medicine and agriculture. Also, the micro- and macroelements contained in it perform important functions for human health. This article provides important information on the further study of the importance of the walnut tree in the national economy and the practical application of its chemical components.

**Key words:** Juglans regia, biologically active substances, acids, chromatographic and analytical methods, furniture industry.

*Juglans regia* (Grek yong'og'i) -O'rtasiyo, Kavkaz va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Hozirgi vaqtda Gretsiya yong'og'i kichik Osiyoda, Bolqon yarim orolida, Eronda, Afg'onistonda, Himolay va Tibetning G'arb qismlarida, O'rtasiyo va Kavkazda yovvoyi ko'rinishda o'sadi. U alohida yoki guruhlar bo'lib o'sadi. Grek yong'og'i – baland bo'yli ko'p yillik daraxt bo'lib, yong'oqdoshlar oilasiga mansub. Yong'oq daraxti hosildor va o'rtacha nam tuproqlarda yaxshi o'sadi. Quruqlik va botqoqlikda rivojlanmaydi, yoshi o'sgan sari tanasi yo'g'onlashib sovuqqa chidamliligi ortadi. O'q ildizli. Shu bois kuchli shamolga bardoshli, issiqqa chidamli daraxt. Bir yillik shohlari 30 daraja sovuqqa, yosh ko'chati esa 25 daraja sovuqqa bardosh beradi, sovuq urmaydi. Respublikamizni bir qator tog'larida, masalan Urgut va Omonqo'ton tog'larida, yong'oqzorlar yastanib yotibdi. Yong'oqzorlar yong'ir va boshqa suvlarni tuproqda saqlash, tuproqni tutib turishda muhim rol o'ynaydi. Eng muhimi, o'pirilishlarning, tuproq yemirilishining oldini oladi. Yong'oqni yetishtirish kamxarj va foydali bo'lib, maxsus parvarishni talab etmaydi. Yong'oq yer tanlamaydi, lekin o'rtacha namli bo'lgan oxakli qumloq-toshloq yerlarda yaxshi o'sadi. Daraxtlar mevaga kirmagan vaqtda qator orasiga boshqa qishloq xo'jalik o'simliklarini ekish mumkin. To'laqonli xosil yig'iniga yetib kelinganda xarajatlar bir yilda qoplanadi. Mutaxassislar fikricha 1 tonna yong'oqni yetishtirish, shuncha miqdordagi bug'doy yoki uzumni yetishtirishga nisbatan arzonidir. 5-8 yoshidan boshlab, ba'zi madaniy navlari 2-3 yoshidan boshlab hosil bera boshlaydi va bu qobiliyatni 500-yilgacha saqlab qoladi. Xosildorlik gektaridan 2.5-3.0 tonnani tashkil etadi.

Bu daraxtning hamma qismlari inson salomatligi va xo'jalikdagi extiyojlari uchun to'liq ishlatish mumkin. Bu daraxtning yog'ochi mebel sanoati uchun qimmatli homashyo hisoblanadi. Yong'oq yog'ochi tarkibidagi bakteritsid va insektotsid xususiyatga ega moddalar, masalan yuglon alkaloidi, yog'och chirishini va xasharotlar tomonidan zaralanishini oldini oladilar. Bundan

tashqari yog'ochning fizik-mexanik ko'rsatkichlari, yuqori dinamik mustaxkamligi va yorilishga kam moyilligi, shuningdek yog'och teksturasi mebel sanoati texnologik shartlarini to'la qondiradi. Shuning uchun yong'oq yog'ochidan tayyorlangan mebellar sifatli va uzoq umrli bo'ladi. Qo'qon o'rmon xo'jaligida yong'oq yog'ochidan ishlab chiqarilayotgan turfa xil mebel buyumlari xorijnikidan qolishmaydi. Yurtdoshlarimiz ularni sevib xarid qilishiyapti.

O'simlikning hamma qismlarida katta miqdorda biologik faol moddalar bor. Barglarida – aldegidlar, efir moyi, alkaloidlar, S, RR-vitaminlari, karotin, fenolkarbon kislotalar, oshlovchi moddalar, kumarinlar, flavanoidlar, antotsianlar va xinonlar mavjud. Yong'oq barglaridagi S – vitamin miqdori rivojlanish davomida asta-sekin oshib boradi va vegetatsion davrda maksimumga yetadi. Gulqo'rg'onida – organik kislotalar, S-vitamin, karotin, fenolkarbon kislotalar, oshlovchi moddalar, kumarinlar, xinonlar, A-provitamini va bakteritsid xossasiga ega bo'lgan bo'yovchi yuglon moddasi mavjud.

Yong'oq mevasini yog'ochli qobig'ida – fenolkarbonli kislotalar, oshlovchi moddalar va kumarinlar mavjuddir. Mag'iz orasidagi to'siq po'chog'ida – steroidlar, fenolkarbon kislotalar, oshlovchi moddalar, kumarinlar mavjudligi aniqlangan. Mag'zida – 18% oqsil, shakar, A-provitamini, S, E, R, K vitaminlari, V-guruh vitaminlari, mineral moddalar mavjud. Moyi – stearin, olein, linol, palmitin va linolen kislotalar glitseridlaridan tashkil topgan. Yetilmagan mevalar qobig'ida S – vitamini ko'proq bo'ladi. Miqdori bo'yicha na'matak, qora smorodina va sitruslardan qolishmaydi. Shuning uchun yong'oqning yetilmagan mevalari qobig'idan vitaminli konsentratlar tayyorlanadi. Pishgan yong'oq mag'zida eng yaxshi o'simlik moyi bor. Bu moy antiskleroz xususiyatga ega

bo'lib, ishemik kasali, boshqa yurak-qon tomir kasalliklari va jigar kasalligida qo'llaniladi.

Maqsad sari odimlar ekanmiz, biz uzoq o'tmishga bir nazar tashlab, xalq tabobatiga asoslangan xolda, uning erishgan yutuqlarini tadqiq qilib, yong'oqning kimoviy tarkibiga asoslanib, mikroelementlarga boy bo'lgan yong'oqni yetilmagan mevasidan ivitma tayyorlandi. Yong'oqni yetilmagan mevasidan 60 dona olib maydalandi va 0,5 litr 70 foizli etil spirti xamda 0,5 litr asal qo'shib 14 kun qorong'i yerda saqlandi. Shisha idish og'zi berkitilgan xolda har kuni chayqatib turildi. Tayyor eritma suzib olindi va aloxida idishga quyildi. Bir kurs davolanish uchun ushbu ivitmadan endokrin kasalligiga uchragan bemorlar (bo'qoq) kuniga 3 maxal 1 osh qoshiqdan qaynatilgan suvga qo'shib 28 kun mobaynida ichshlari lozim.

Yong'oqni 70% li etil spirtli va asalli ivitmasi xromatografik va analitik metodlar asosida tekshirib ko'rilganda, askorbin kislota, alkaloidlar, flavonoidlar, naftaxinonlar, yod borligi aniqlandi. Sifat analizda yod borligi kumush nitrat orqali aniqlandi. Bunda sariq rangdagi cho'kma tushdi.

Yong'oqning hamma qismlari foydali va zarur moddalarga boy bo'lib chiqitsiz texnologiyaga asoslangan o'simlik sifatida Respublikamizning qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqarilgan lalmi yerlari, tog' va adir yonbag'irlarida ekib keng qo'llanilsa, tabiat ekologiyasi va xo'jalik iqtisodi tomonidan maqsadga muvofiq bo'lardi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. X.X.Холматов, Ў.А.Ахмедов. Фармакогнозия. Тошкент, Ибн Сино НМБ, 1995, 623 б.
2. Қ.Х. Холматов, З.Х. Ҳабибов, Н.З Олимхўжаев. Ўзбекистоннинг шифобахш ўсимликлари. Тошкент, Ибн Сино НМБ, 1991, 44 бет
3. D.Grosser, W.Teetz: Einheimische Nutzhölzer (Loseblattsammlung), Herausgeber: CMA und AG Holz, 1985, ISSN 0446-2114.
4. [http://www.gardenia.ru/quests/quest\\_659.htm](http://www.gardenia.ru/quests/quest_659.htm)

## MUNDARIJA

<b>I.A.Asqarov., Yu.T.Isayev., S.A.Rustamov., D.U.Egamberdiyev</b> “Ferrakon” BFQ tarkibidagi glisirizin kislotasi va flavonoidlar miqdorini spektrofotometrik aniqlash .....	3
<b>O.A.Tursunova</b> Matn tahlilida germenektika .....	7
<b>O.A.Sobirova</b> Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisiga xos metodik kompetensiyalar va ularni rivojlantirish Bosqichlari.....	10
<b>Sh.K.Tojiboyeva</b> Bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish metodikasi (“mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fani misolida)	16
<b>M.S.Xusanov</b> Zamonaviy iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish muammolari.....	22
<b>D.A.Tursunova</b> Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini o‘quvchilarda tarixiy va ma’naviy ideallarga aksiologik munosabatni shakllantirishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (tarix fanlari misolida).....	34
<b>N.Q.Nabiyev</b> Evaluation of antidiabetic and anti-inflammatory activities of some medicinal plants.	40
<b>N.Q.Nabiyev</b> Studying the anti-inflammatory properties of certain medicinal plants .....	45
<b>N.Q.Nabiyev</b> Изучение антибактериальных активных веществ и противовоспалительных свойств растений .....	53
<b>N.Q.Nabiyev</b> Исследование антибактериальных активных веществ целебных растений.....	56
<b>U.Shomirzayev</b> Основные направления развития спортивного маркетинга.....	59
<b>N.Sh.Yusufova</b> Tyubegatan galogen qatlamidagi aksessor elementlar .....	65
<b>M.M.Ne‘matov</b> Shahar elektr ta‘minotida turar joy binolarini elektr yuklamalarini hisobiy quvvatini aniqlash.....	68
<b>X.X.Tursunboyev</b> Juglans regianing xalq xo‘jaligidagi axamiyati va tarkibi .....	75

## **UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNALI**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan ixtisoslik sifatida ro‘yxatga olingan quyidagi sohalarini qamrab oladigan o‘zbek, rus, ingliz tillarida davriy ochiq elektron jurnal.

- 01.00.00 – Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 – Kimyo fanlari
- 03.00.00 – Biologiya fanlari
- 05.00.00 – Texnika fanlari
- 06.00.00 – Qishloq xo‘jaligi fanlari
- 07.00.00 – Tarix fanlari
- 08.00.00 – Iqtisodiyot fanlari
- 09.00.00 – Falsafa fanlari
- 10.00.00 – Filologiya fanlari
- 11.00.00 – Geografiya fanlari
- 13.00.00 – Pedagogika fanlari
- 19.00.00 – Psixologiya fanlari

Jurnal ta’rischilari: “Ilm-fan fidoyilari” MCHJ

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami: № 245196

GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari asosida bo‘lishini to‘liq ta‘minlash maqsadida, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi o‘rnatilgan tartibda raqam taqdim etildi asosan davriy nashrlarini ISSN tartib raqami bilan belgilash uchun qo‘yidagi raqam taqdim etildi: **ISSN - 3060-4540**

Tahririyat manzili: 170805 O‘zbekiston Respublikasi, Andijon v., Marhamat t., Qashqar ko‘chasi, 189

**© Jurnalda berilgan materiallarning mazmuni va haqqoniyligiga mualliflarning o‘zlari javobgardirlar.**

<https://universaljurnal.uz>, [info@universaljurnal.uz](mailto:info@universaljurnal.uz), +998901423938; +998902090807